



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Roman-German filologiyasi fakulteti

dekani _____ p.f.n. D.Jo`rayev

“ _____ ” _____ 2012 yil

Roman-German filologiyasi fakulteti

5220100-“Nemis filologiyasi” ta`lim yo`nalishi

4 -kurs 41- guruh talabasi

MAMATOV ELYORning

“Poetik asarlar tarjimasiga doir” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

_____ talaba Mamatov E.

Ilmiy rahbar: _____

“ _____ ” _____ 2012 yil

“Himoyaga tavsiya etilsin”

“Roman-German tillari” kafedrasi

mudiri: _____ f.f.n. K.Markayev

“ _____ ” _____ 2012 yil

Qarshi-2012 yil

Reja:

Kirish

Ishning umumiy tavsifi

I bob. M.Solihning ijodi va faoliyati haqida

1.1. “Shayboniynoma” – tarixiy doston

2.1. “Shayboniynoma” ning badiiyligi va tili

Xulosa

II bob. “Shayboniynoma” - o'zbek-nemis adabiy aloqlari sarchashmasida

2.1. Herman Vamberi – tilshunos, sharqshunos, etnograf.

2.2. “Shayboniynoma” - Hermann Vamberi tarjimasida.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Mundarija

Ishning umumiy tavsifi.....	
M.Solihning ijodi va faoliyati haqida	
1.1. “Shayboniynoma” – tarixiy doston.....	
2.1. “Shayboniynoma” ning badiiyligi va tili.....	
Xulosa.....	
“Shayboniynoma”-o’zbek-nemis adabiy aloqlari sarchashmasida	
2.1. Herman Vamberi – tilshunos, sharqshunos, etnograf.....	
2.2. “Shayboniynoma” - Hermann Vamberi tarjimasida.....	
Xulosa.....	
Foydaliniilgan adabiyotlar.....	

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Tarjima tarixi adabiyot tarixi kabi ming yillik tarixga ega. Jumladan “Shayboniynoma” nemischa tarjimasini tadqiq etish ham o'zbek tarjimachiligi tarixining yaxshi yoritilmagan sahifalarini ilm ahliga ochib beradi. Darhaqiqat, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: “O'tmishni bilmasadan turib – biz kelajakka olg'a qadam qo'ya olmaymiz”¹. Mavzuning dolzarbligi ham ana shunda! Ilodiz baquvvat xalq, millat o'lmaydi, adabiyot ravnaq topib boraveradi. “Shayboniynoma”ning nemischa tarjimasini tadqiq etish o'zbek adabiyotining jahon adabiyotida tutgan o'rnini ko'rsatishda muhim o'rim tutadi.

Muammoning o'rgailganlik darajasi. “Sahyboniynoma”ning nemischa tarjimasini tadqiq etish, o'zbek adabiyotimning xalqaro aloqalarini belgilashda, Shayboniynomaning o'zni va rolini ko'rsatish hali to'liq qo'rganilmagan, bu borada ya'ni “Sahyboniynoma”ning nemischa tadqiq etish masalasi G'.Xo'jayevning nomzodlik dissertatsiyasida qisman o'rganilgan. Albatta, asarning nemischa tarjimasi tadqiqi va uning tarjima tarixidagi o'zni va rolini ko'rsatish, teran tahlil qilish o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. “Sahyboniynoma”ning nemischa tarjimasini tadqiq etishdan maqsad, o'zbek tarjimachilig tarixini xiralashib qolgan sahifalarini hozirgi avlodga, mustaqillik farzandlariga yetkazishdan iborat.

Biz bilamizki, jahon madaniyati tarixida, jahon ilm-fani taraqqiyotida ajdodlarimiz, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, farg'oniy, zamaxshariy, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Z.M.Bobur ulkan hissa qo'shganlar.

O'zbek mumtoz adabiyotining ravnaqiga esa Hazrat Navoiy, Boburlar bilan bir qatorda, M.Solihning ham o'z o'zni bor. Uning “Sahyboniynoma” asari XV asr mumtoz adabiyotining durdona asarlaridan biridir. Uning tili hozirgi o'zbek adabiy tiliga yaqinligi bilan, tushunarligi bilan ajralib turadi.

Bitiruv malakaviy ishimning maqsadi o'zbek tarjimachiligining qanday asoslarga ega ekanligini, ildizi va tarjima tarixining ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan sahifasini ko'rsatishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti va predmeti. Tadqiqotning ob'yekti sifatida o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan biri M.Solihning “Sahyboniynoma” asarini oldik. Adibning o'zbek adabiyoti ravnaqiga qo'shgan hissasini ko'rsatish, uning ijodi va faoliyatiga xoisona baho berish. Bitiruv malakaviy ishimizning ob'yekti bo'lsa, asarning nemischa tarjimasini o'rganish tarjimon H.vamberining mahoratiga baho berish tadqiqotning predmetidir.

¹ I.Karimov. “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”. Toshkent, “Ma'naviyat” nashriyoti. 2008.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi. O'zbek nemis adabiy aloqalarini o'rganish borasida madaniy-ilmiy hamkorlikda tarjimaning, xususan "Sahyboniynoma"ning o'rnini va rolini o'rganishda mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan yondashdik. Bunda birinchi galda yurtboshimiz I.Karimov asarlaridagi tarixiy o'tmishga hurmat, madaniy merosimizni o'rganish va yoshlar ongiga singdirish haqidagi fikrlari amal qilib olingan.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi o'zbek tarjimachiligi bugungi kunning hosilasi emasligini ko'rsatish, o'zbek tarjimachiligining ibtidosini belgilash va o'zbek mumtoz adabiyotining nodir durdonasi "Sahyboniynoma"ning nemis kitobxoni, o'quvchilari nechog'lik xazm qilayotganliklarini ko'rsatishdan iborat. Tarjima jarayonida mutarjim tomonidan yo'l qo'yilgan xato, kamchiliklar, nuqsonlarni va yutuqlarni ko'rsatishdan iborat.

I bob

M.Solihning ijodi va faoliyati haqida

1.1. “Shayboniynoma” – tarixiy doston

Temuriylardan keyin hokimiyat tepasiga kelgan shayboniylar hukmronlik qilgan deyarli bir asrlik zamonda ham, bir oz tanaffus bilan, bunyodkorlik ishlari davom ettirildi. Bu sulolaning asoschisi Muhammad Shayboniyxon haqida o'sha uchrashuvda Prezident Islom Karimov xalqimizning o'tmishda o'tgan farzandi haqida xolisona fikr bildirishi ko'p savobli ish bo'ldi, chunki to shu paytgacha sho'rolar davrida chiqqan tarixiy kitoblarda ham, badiiy adabiyot – romanlarda ham umuman Shayboniylar sulolasi, xususan, sulolaboshi Muhammad Shayboniy haqida har tomonlama, chalkashu noto'g'ri fikrlar bildirildi, ayniqsa videofilmlarda to'pori dasht odati sifatida tasvirlandi. Prezidentimizning o'sha suhbatda “Shayboniyxon Buxoro madarasalarida tahsil ko'rgan, o'qimishli odam bo'lgan. Buxoroda olgan ilm-ma'rifatini hokimiyat tepasiga kelgach, yana el-yurtiga qaytarib bergan” deb xolis va to'g'ri fikr bildirishining ham ma'naviy, ham tarixiy, ham siyosiy ahamiyati bor.

Prezidentimizning Shayboniyxon haqida bildirgan fikrining tarixiy ahamiyati shundaki, o'tmishda o'tgan tarixiy shaxsga baho berishda uning qaysi bir sulola vakili bo'lganiga qarab emas, balki faoliyatiga qarab, el-yurtiga qanday xizmat qilganiga, o'zidan keyin nimalar qoldirganiga qarab baho berish lozimdir.

Prezidentimiz bildirgan fikrning siyosiy ahamiyati shundaki, XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida, sanani Shayboniyxonning Samarqand taxtini egallashidan belgilasak, 1500 yili yurtimizda hokimiyat almashuvi yuz berdi, hokimiyat temuriylardan shayboniylar qo'lga o'tdi, el-yurt o'z joyida qolaverdi, o'zbek milliy davlatchiligi davom etaverdi.¹

Muhammad Solih o'zbek adabiyotining ulkan namoyondalaridan biridir. Navoiy va Bobur kabi atoqli so'z san'atkorlari tomonidan iste'dodli shoir sifatida ta'riflangan Muhammad Solihning o'zbek va fors-tojik tillarida yaratgan she'rlarida ayrim parchalargina saqlanib qolgan, xolos. Uning epik ijodi - “Shayboniynoma” esa bizga qadar to'la yetib keldi. O'zbek klassik adabiyotida birinchi tarixiy doston bo'lgan “Shayboniynoma”, ayrim tendentsioz xususiyatlariga qaramay, ikki sulola: Temuriylar bilan shayboniylar o'rtasidagi urushlarning dahshatli manzaralarini tasvirlashi, badiiy uslubi va tili bilan o'tmish adabiyotning qimmatli bir yodgorligidir.

¹ Abduqahhor Ibrohimov. Bizkim, o'zbeklar... “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2001. 29-30 betlar.

Muhammad Solih 1455 yilda Xorazmda tug'ilgan. Uning bobosi Amir shoh Malik Ulug'bekning vasiysi va tarbiyachisi bo'lib, Temur va Ulug'bek saroylarida katta obro'ga ega bo'lgan amirlardan edi. Otasi Nur Saidbek esa Ulug'bek, Jo'gi Mirzo va Abusaid Mirzo saroylaridagi e'tiborli arboblardan biri bo'lib, keyinchalik Abusaid Mirzoga qarashli bo'lgan Xorazmda ancha vaqt hokimlik qilgan.

Toju-taxtni egallash uchun uzoq yillar davomida Abusaid Mirzoga qarshi kurash olib brogan Husayn Boyqaro 1467 yilda Xorazmga hujum qiladi. Mudofaa choralari yaxshi tashkil eta olmagan Xorazm amirlari Husayn Boyqaroning hujumiga bardosh bera olmay, qochib ketadilar. Bundan g'azablangan Abusaid Mirzo, tarixchi Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlaul-sa'dayn" ("Ikki baxtning boshlanmasi") asarida hikoya qilishicha, "Hamma mirlar Xorazm viloyatiga jo'nasinlar... gunohi ayon bo'lgan har bir kishiga sazo va jazo berilsin...", deb buyruq qiladi. Shu jumladan, Amir Nur Said ham jang kunlari parvosizlik qilgani uchun gunohkor sanalgan edi. Amirlar oliy farmonga binoan, Xorazmga jo'nab, ahvolni batafsil biladilar: "Xorazm askarlarining soni ko'p bo'lishiga qaramay, zafarpanoh Miroz Sulton Husaynning hujumiga bardosh bera olmay, birdaniga qochib qolgan ekan... Amir Pirdarvesh Kuchin... Amir Saidni tutib olib, uni otga

Reja:

Kirish

Ishning umumiy tavsifi

I bob

M.Solihning ijodi va faoliyati haqida

1.1. “Shayboniynoma” – tarixiy doston

2.1. “Shayboniynoma” ning badiiyligi va tili

I bobga xulosa

II bob

“Shayboniynoma” - o'zbek-nemis adabiy aloqlari sarchashmasida

2.1. Herman Vamberi – tilshunos, sharqshunos, etnograf.

2.2. “Shayboniynoma” - Hermann Vamberi tarjimasida.

Xulosa

Foydaliniilgan adabiyotlar

Kirish

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Tarjima tarixi adabiyot tarixi kabi ming yillik tarixga ega. Jumladan “Shayboniynoma” nemischa tarjimasini tadqiq etish ham o'zbek tarjimachiligi tarixining yaxshi yoritilmagan sahifalarini ilm ahliga ochib beradi. Darhaqiqat, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: “O'tmishni bilmasadan turib – biz kelajakka olg'a qadam qo'ya olmaymiz”¹. Mavzuning dolzarbligi ham ana shunda! Ilodiz baquvvat xalq, millat o'lmaydi, adabiyot ravnaq topib boraveradi. “Shayboniynoma”ning nemischa tarjimasini tadqiq etish oz'bek adabiyotining jahon adabiyotida tutgan o'rnini ko'rsatishda muhim o'rim tutadi.

Muammoning o'rgailganlik darajasi. “Sahyboniynoma”ning nemischa tarjimasini tadqiq etish, o'zbek adabiyotimning xalqaro aloqalarini belgilashda, Shayboniynomaning o'rnini va rolini ko'rsatish hali to'liq o'rganilmagan, bu borada ya'ni “Sahyboniynoma”ning nemischa tadqiq etish masalasi G'.Xo'jayevning nomzodlik dissertatsiyasida qisman o'rganilgan. Albatta, asarning nemischa tarjimasini tadqiqi va uning tarjima tarixidagi o'rnini va rolini ko'rsatish, teran tahlil qilish o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. “Sahyboniynoma”ning nemischa tarjimasini tadqiq etishdan maqsad, oz'bek tarjimachilig tarixini xiralashib qolgan sahifalarini hozirgi avlodga, mustaqillik farzandlariga yetkazishdan iborat.

Biz bilamizki, jahon madaniyati tarixida, jahon ilm-fani taraqqiyotida ajdodlarimiz, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, farg'oniy, zamaxshariy, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Z.M.Bobur ulkan hissa qo'shganlar.

O'zbek mumtoz adabiyotining ravnaqiga esa Hazrat Navoiy, Boburlar bilan bir qatorda, M.Solihning ham o'z o'rnini bor. Uning “Sahyboniynoma” asari XV asr mumtoz adabiyotining durdona asarlaridan biridir. Uning tili hozirgi o'zbek adabiy tiliga yaqinligi bilan, tushunarligi bilan ajralib turadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi oz'bek tarjimachiligining qanday asoslarga ega ekanligini, ildizi va tarjima tarixining ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan sahifasini ko'rsatishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti va predmeti. Tadqiqotning ob'yekti sifatida oz'bek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan biri M.Solihning “Sahyboniynoma” asarini oldik. Adibning o'zbek adabiyoti ravnaqiga qo'shgan hissasini ko'rsatish, uning ijodi va faoliyatiga xosona baho berish. Bitiruv malakaviy

¹ I.Karimov. “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”. Toshkent, “Ma'naviyat” nashriyoti. 2008.

ishimizning ob'yekti bo'lsa, asarning nemischa tarjimasini o'rganish tarjimon H.vamberining mahoratiga baho berish tadqiqotning predmetidir.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi. O'zbek nemis adabiy aloqalarini o'rganish borasida madaniy-ilmiy hamkorlikda tarjimaning, xususan "Sahyboniynoma"ning o'rni va rolini o'rganishda mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan yondashdik. Bunda birinchi galda yurtboshimiz I.Karimov asarlaridagi tarixiy o'tmishga hurmat, madaniy merosimizni o'rganish va yoshlar ongiga singdirish haqidagi fikrlari amal qilib olingan.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi o'zbek tarjimachiligi bugungi kunning hosilasi emasligini ko'rsatish, o'zbek tarjimachiligining ibtidosini belgilash va o'zbek mumtoz adabiyotining nodir durdonasi "Sahyboniynoma"ning nemis kitobxonlari, o'quvchilari nechog'lik xazm qilayotganliklarini ko'rsatishdan iborat. Tarjima jarayonida mutarjim tomonidan yo'l qo'yilgan xato, kamchiliklar, nuqsonlarni va yutuqlarni ko'rsatishdan iborat.

Kirish

Temuriylardan keyin hokimiyat tepasiga kelgan shayboniylar hukmronlik qilgan deyarli bir asrlik zamonda ham, bir oz tanaffus bilan, bunyodkorlik ishlari davom ettirildi. Bu sulolaning asoschisi Muhammad Shayboniyxon haqida o'sha uchrashuvda Prezident Islom Karimov xalqimizning o'tmishda o'tgan farzandi haqida xolisona fikr bildirishi ko'p savobli ish bo'ldi, chunki to shu paytgacha sho'rolar davrida chiqqan tarixiy kitoblarda ham, badiiy adabiyot – romanlarda ham umuman Shayboniylar sulolasi, xususan, sulolaboshi Muhammad Shayboniy haqida har tomonlama, chalkashu noto'g'ri fikrlar bildirildi, ayniqsa videofilmlarda to'pori dasht odati sifatida tasvirlandi. Prezidentimizning o'sha suhbatda "Shayboniyxon Buxoro madarasalarida tahsil ko'rgan, o'qimishli odam bo'lgan. Buxoroda olgan ilm-ma'rifatini hokimiyat tepasiga kelgach, yana el-yurtiga qaytarib bergan" deb xolis va to'g'ri fikr bildirishining ham ma'naviy, ham tarixiy, ham siyosiy ahamiyati bor.

Prezidentimizning Shayboniyxon haqida bildirgan fikrining tarixiy ahamiyati shundaki, o'tmishda o'tgan tarixiy shaxsga baho berishda uning qaysi bir sulola vakili bo'lganiga qarab emas, balki faoliyatiga qarab, el-yurtiga qanday xizmat qilganiga, o'zidan keyin nimalar qoldirganiga qarab baho berish lozimdir.

Prezidentimiz bildirgan fikrning siyosiy ahamiyati shundaki, XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida, sanani Shayboniyxonning Samarqand taxtini egallashidan belgilasak, 1500 yili yurtimizda hokimiyat almashuvi yuz berdi, hokimiyat

temuriylardan shayboniylar qo'liga o'tdi, el-yurt o'z joyida qolaverdi, o'zbek milliy davlatchiligi davom etaverdi.¹.

Muhammad Solihning ijodi va faoliyati haqida

Muhammad Solih o'zbek adabiyotining ulkan namoyondalaridan biridir. Navoiy va Bobur kabi atoqli so'z san'atkorlari tomonidan iste'dodli shoir sifatida ta'riflangan Muhammad Solihning o'zbek va fors-tojik tillarida yaratgan she'rlarida ayrim parchalargina saqlanib qolgan, xolos. Uning epik ijodi - "Shayboniynoma" esa bizga qadar to'la yetib keldi. O'zbek klassik adabiyotida birinchi tarixiy doston bo'lgan "Shayboniynoma", ayrim tendentsioz xususiyatlariga qaramay, ikki sulola: Temuriylar bilan shayboniylar o'rtasidagi urushlarning dahshatli manzaralarini tasvirlashi, badiiy uslubi va tili bilan o'tmish adabiyotning qimmatli bir yodgorligidir.

Muhammad Solih 1455 yilda Xorazmda tug'ilgan. Uning bobosi Amir shoh Malik Ulug'bekning vasiysi va tarbiyachisi bo'lib, Temur va Ulug'bek saroylarida katta obro'ga ega bo'lgan amirlardan edi. Otasi Nur Saidbek esa Ulug'bek, Jo'gi Mirzo va Abusaid Mirzo saroylaridagi e'tiborli arboblardan biri bo'lib, keyinchalik Abusaid Mirzoga qarashli bo'lgan Xorazmda ancha vaqt hokimlik qilgan.

Toju-taxtni egallash uchun uzoq yillar davomida Abusaid Mirzoga qarshi kurash olib brogan Husayn Boyqaro 1467 yilda Xorazmga hujum qiladi. Mudofaa choralari yaxshi tashkil eta olmagan Xorazm amirlari Husayn Boyqaroning hujumiga bardosh bera olmay, qochib ketadilar. Bundan g'azablangan Abusaid Mirzo, tarixchi Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlaus-sa'dayn" ("Ikki baxtning boshlanmasi") asarida hikoya qilishicha, "Hamma mirlar Xorazm viloyatiga jo'nasinlar... gunohi ayon bo'lgan har bir kishiga sazo va jazo berilsin...", deb buyruq qiladi. Shu jumladan, Amir Nur Said ham jang kunlari parvosizlik qilgani uchun gunohkor sanalgan edi. Amirlar oliy farmonga binoan, Xorazmga jo'nab, ahvolni batafsil bilandilar: "Xorazm askarlarining soni ko'p bo'lishiga qaramay, zafarpanoh Miroz Sulton Husaynning hujumiga bardosh bera olmay, birdaniga qochib qolgan ekan... Amir Pirdarvesh Kuchin... Amir Saidni tutib olib, uni otga mindirib, shamol tezligida uni Hirotga yuboradi. Uning butun mollari va vajhlarini talon-taroj ettirdi. Amir Nur Said Rabbial-Avvalning 20-sida Hirotga eltdi va uni Ixtiyoriddin qal'asiga qamadilar... janob shayx (Abduraxmon Jomiy) amir Nur Saidning gunohini tiladilar. Hazrati Xilofatpanoh (Jomiy)ning iltimosini qondirdi..."

Nur Said Hirotida avval xiyla moddiy muhtojlik tortadi. Hatto bir ot berishini so'rab Abusaid Mirzoga murojaat qiladi. Lekin oradan ko'p o'tmay, Abdurazzoq

¹ Abduqahhor Ibrohimov. Bizkim, o'zbeklar... "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2001. 29-30 betlar.

Samarqandiyning aytishiga qaraganda, Nur Said “yana amirlar qatoridan joy egallaydi...”

1469 yilda Husayn Boyqaro Hirot taxtiga chiqadi. Abusaid Mirzoning bir qancha amir va beklari jazoga tortiladi. Shu vaqtlarda Marv shahrida bo'lgan Nur Said ham qatl qilinadi. Muhammad Solih otasining fojiali sarguzashti va o'zining yoshlik chog'larini eslab, keyinchalik “Shayboniynoma”da bunday degan edi:

...Laqabi Solihu o'zi solih,
Nur Said o'g'li Muhammad Solih.
Mundoq ayturki, xudodin taqdir
Chunonam ishiga berdi tag'yir:
Chiqdi Xorazm diyori qo'ldin,
Xevaqu Kot hisori qo'ldin,
Tushti andin guzori Marv sori,
Anda sovruldi ev(u) eli bori.
Ayladi no'sh shahodat jomi,
Anga nesh o'ldi saodat jomi.
Meni gardun sitami qildi yetim,
Ayladi kishvari g'am ichra muqim...

Muhammad Solih oila boshiga tushgan kulfatlarga qaramay, qunt va havas bilan o'qiydi. Abduraxmon Jomiydan tahsil oladi, arab va fors-tojik tillarini o'rganadi, tarix, adabiyot, husnixat va boshqalar bilan shug'ullanadi, she'r yozishni mashq qiladi. Shu bilan birga, u goh Xurosonda, goh Samarqandda Temuriy hukmdorlarining saroyida mulozimlik qiladi.

Muhammad Solih otasining fojiali taqdiri va amir-amaldorlar o'rtasidagi nizo-adovat, saroydagi ishratbozliklar uning g'azabini yanada kuchaytiradi. Muhammad Solih 1499 yilda Mulla Abduraxmon degan amaldorning maslahati bilan Temuriylar saroyini tark etib, Shayboniyxon tomonga o'tadi. Temuriylar dargohida xizmat qilgan amir-amaldorlar, shoir va olimlarni o'z tomoniga og'dirib olishdan manfaatdor bo'lgan Shayboniyxon Muhammad Solihni yaxshi qabul qiladi va o'z saroyida “amirul-umaro” (“amirlar amiri”), “amlikul-shuaro” (“shoiralar boshlig'i”) martabasiga ko'taradi. Muhammad Solih Shayboniyxonning davlat idora ishlari va harbiy yurishlarida faol ishtirok etadi. Shayboniyxon 1500 (905) yilda Buxoroni egallab Samarqandga yurish qilayotganida, Muhammad Solihni Buxoroda o'z o'rniga qoldiradi. Muhammad Solih bir oz vaqt Qunduz shahrida ham bo'ladi. U Shayboniyxonning ukasi Sulton Mahmudning vafotidan keyin (1504 yil) Shayboniyxondan ruxsat olib Buxoroga qaytadi. Shayboniy 1504-1505 yillarda Xorazmga yurish boshlaydi. Shayboniy qo'shini Buxorodan chiqib Qorako'lga

yetganda Chorjo'y hokimi Amir Yorali Shayboniyni sovg'alar bilan qarshi olib, unga taslim bo'ladi. Shayboniyxon Chorjo'yga Muhammad Solihni dorug'a (shahar hokimi) qilib qoldiradi. Muhammad Solih Chorjo'yda birmuncha tartib o'rnatib olgandan so'ng Shayboniyxonning izidan Xorazmga jo'naydi. Xorazm hokimi Chin So'fi Husayn Boyqoradan madad so'raydi. Shu orada Husayn Boyqora Shayboniyxonning e'tiborini Xorazmdan chetga tortish uchun, Qunduz, Chorjo'y va boshqa joylarga qo'shin yuboradi. Muhammad Solih Chorjo'yga qaytadi, qal'ani mustahkamlaydi, askarlarni jangga tayyorlaydi. Temuriylar elchi yuborib, Muhammad Solihni o'z tomonlariga o'tkazmoqchi bo'ladilar. Biroq u :

Men dedim: "Sizga javobim o'qtur,
Mundin o'zga base so'zum yo'qtur.

Javringizdin otam o'ldi, netayin?
Boshima qayg'u o'quldi, netayin?
Men otam qoni uchun otlanaman,
Men o'zim joni(m) uchun qotlanaman...", - deb javob beradi.

Muhammad Solih 1505 yilning oxiri yoki 1506 yilning boshida Neso (Ashaxobod yaqinida) shariga dovrug'a qilib tayinlanadi. Aftidan, u 1510-1511 yillargacha Neso shahrida yashagan. Shayboniyxonning vafotidan keyin esa Buxoroga qaytib, umrining oxiriga qadar o'sha yerda istiqomat qilgan. Lutf Ali ibn Oqoxon Ozarning "Otashkada" asarida ko'rsatilishicha, Muhammad Solih hijriy 941, melodiy 1535 yilda Buxoroda vafot etadi. Hasanxo'ja Nisoriy "Muzakkirul-ahbob"da Muhammad Solihning Mirzo Ulug'bek ismli o'g'li bo'lgani va uning iste'dodli shoir ekanligini aytib, uning:

"Ey xo'sh ul kunlardirki, ko'nglim vaslidin xushaxol edi;
Axtarim farxundau baxtim hunoyun fol edi"

Baytini keltiradi. Muhammad Solihning oilaviy hayotiga doir boshqa ma'lumotlar saqlanib qolmagan.

Shunday qilib, Muhammad Solih Temuriylar sulolasining inqirozi va yemirilishi, shayboniylar sulolasining vujudga kelishi va dastlabki hukmronligi yillarida yashadi, ijod qildi. Uning hayoti va faoliyati, badiiy ijodi, ayniqsa "Shayboniynoma" dostoni mana shu ikki sulola o'rtasidagi kurash va to'qnashuvlar bilan, bu kurash va to'qnashuvlarning oqibati bilan yaqindan bog'liqdir.

Muhammad Solih lirik va epik shoirdir. Manbalarda Muhammad Solihning badiiy ijodiyotidagi "Zullisonaynlik" traditsiyasini muvaffaqiyat bilan davom ettirgan, o'zbek va fors-tojik tillaridagi she'rlari bilan kitobxonlarga, adabiyot ahllariga manzur bo'lganini ko'rsatadi. Biroq, afsuski, Muhammad Solihning lirik she'rlar to'plami bizga

qadar saqlanib qolmagan yoki hozirga qadar noma'lum bo'lib kelmoqda. Biz bu iste'dodli shoirning ayrim lirik parchalari bilan "Majolisun-nafois", "Badoeul-vaqoe", "Bobirnoma", "Tuhfai Somiy", "Otashkada" va boshqa manbalar orqali tanisha olamiz. Muhammad Solihning bir necha mustaqil lirik she'rlari "Shayboniynoma" dostonida ham bor.

Navoiy "Majolusin-nafouis"da Muhammad Solih haqida bunday deydi:

"Muhammad Solih – ismi munosabati bilan Solih taxallus qilur. Nur Saidbek o'g'li dururkim, ko'p vaqtlar Chohrjo'y navosidin Adoq navosig'a degincha amorat (amirlik – N.M) qildi va Sulton Abusaid Mirzo eshigida, Uug'bek va Jo'gi Mirzo eshigida sohib ixtiyor va jumlatul-mulk erdi. Ammo bag'oyat badfe'l – badxulq kish erdi. O'zi muloyim yigitdur. Atvorining otasi atvorig'a nisbati yo'qtur. Anga ham g'arib sahve tushtukim, Sulton Sohibqiron (Husayn Boyqora – N.M.) qullig'idin g'aybat iztiyor qildi. Ba'zi dedilarkim, bexudluq olamida yomon musohiblar ani yomon yo'lg'a tutubdurlar¹. Ta'bida xeli diqqat vachoshin bor. Xatqa ham qobiliyati ko'pdur. Bu matla aningdurkim:

Nayam oshufta, gar po'shid kokul mohi tobonash,

Cha g'am az tiyragiyi shab, chu boshad subhi poyonash"².

Yuqorida keltirilgan bayt Muhammad Solihning mohir san'atkorligiga dalildir. Bu bayt haroratli sevgi. Yorning visoliga erishish ishtiyoqi, va bunga ishonch hissi tashbihi tom (to'la o'xshatish) usuli bilan ifodalangan: kokul – tun, yuz – tong.

Zahriddin Muhammad Bobur ham "Boburnoma"da Muhammad Solihga "Choshnilik g'azallari bor, agarchi hamvorlig'i choshnischa yo'qtur, turkiy she'ri ham bor. Yomon aytmaydur..." deb baho beradi va bir necha o'rinda uning she'rlaridan parchalar keltiradi hamda bir baytiga tatabu' qiladi.

Muhammad Solihning ijodiy merosi haqida so'z borganda adabiyotshunos olimlarimiz ko'proq uning "Shayboniynoma" asari yuzasida fikr yuritadilar. Haqiqatan ham, adibning bu asari o'zbek adabiyoti tarixida alohida o'rinni ishg'ol etadi. Muhammad Solihga qadar yaratilgan dostonlar ko'proq an'anaviy syujet asosida yaratilar edi. Bu asarlar davr bilan, o'sha tarixiy sharoit bilan bog'liq holda yaratilgan bo'lishiga qaramay bevosita hayotdagi voqea-hodisalar aks ettirilgan realistik xarakterdagi dostonlar deyarli yo'q edi. Bu jihatdan Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostoni XVI asr o'zbek adabiyoti tarixida muhim hodisa bo'ldi.

Shayboniynonning bosqinchilik harakatlarida ishtirok etgan Muhammad Solih ushbu asarida uning 5-6 yillik dahshatli yurishlarini tasvirlagan. Muhammad

¹ Navoiy Mullo Abdurahim kabi kishilarni ko'zda tutsa kerak.

² Baytning mazmuni: kokili yorqin oy (day yuzi)ni yopib turgan ekan, parishon emasman; oxiri tong bo'lganidan keyin tunning qorongiligidan nima g'am?

Solih Shayboniyxon haqida soʻz yuritganda, uni haddan tashqari koʻklarga koʻtarib maqtaydi. Unga juda koʻp ijobiy sifatlarni taqishga urinadi:

Tengrining soyasi Shayboniyxon,
Kim ani kuydi xalifa raxmon.

Gʻaybdan oti Muhammad boʻldi,
Qobili davlati sarmad boʻldi.
Borchaning yaxshilik oning qoshida,
Borchaning davlati oning boshida.

Temuriylar haqida soʻz yuritganda esa, ularni kamsitish, haqorat qilish darajasiga yetib boradi. Zahriddin Muhammad Boburning Shayboniylardan Samarqandni tortib olganligi haqida soʻz yuritar ekan:

Chu Samarqandni oldi Bobur,
Xalq aro tafriqa soldi Bobur.

Husn maydoniga zolim kirdi,
Zulm bozoriga ravnaq berdi.

Zulfiga tob berib oʻlturdi,
Bir necha Dilshodani kuydirdi.

Yigʻilib oldida qochqon, qurgʻon,
Atosidek ani ham koʻrgʻon.

Lof bozorini garm ayladilar,
Soʻz bilan togʻni narm ayladilar.

Andijon lashkarini kelturubon,
Jutta gʻoratlarni kelturubon.

deb yozadi. Shayboniylar hujumidan oʻz qoʻrgʻonlarini mardona mudofaa qilgan qahramonlar haqida yozganda ham ana shunday tendetsiozlik nuqtai-nazaridan baho beriladi.

Biroq, baʼzi nuqsonlarga qaramay, bu asar Muhammad Shayboniyxonning 1499-1506 yillar orasidagi yurishini haqqoniy aks ettiruvchi jangnoma tipidagi yirik dostonidir. Unga qonli toʻqnashuvlar, xalq boshiga tushgan ogʻir musibatlar maʼlum darajada oʻzini realistik ifodasini topgan.

“Shayboniynoma”ni o’qigan kitobxon XVI asr boshlarida og’ir hayot, xalq boshiga tushgan behisob jabru-kulftalar, ayniqsa, xotin-qizlarning hurlanishi yaqqol aks ettiriladi.

“Shayboniynoma” dostonining qo’lyozma nusxalari juda oz bo’lib, bizgacha uning 1510 yilda shoir hayotligida ko’chirilgan nusxalaridan biri yetib kelgan. Bu nusxa Vena kutubxonasida saqlangan. 1885 yilda sharqshunos olim Hermann Vamberi shu nusxa asosida asarni nemischa tarjimasini bilan birga Venada nashr ettirgan.

Keyinroq sharqshunos olim P.M.Melioranskiy o’sha qo’lyozmaning fotokopiyasi va Vamberi nashri asosida 1908 yilda Sankt-Peterburgda asarni ikkinchi marta nashr ettirdi.

“Shayboniynoma” dostonini bosmaga tayyorlash uchun P.M.Melioranskiy nashri asos bo’ldi.

Asarning 1961 yilgi nashri uchun ham P.M.Melioranskiy e’lon qilgan nusxa asos bo’lgan edi. Filologiya fanlari nomzodi Nasrullo Davron nashrga tayyorlagan bu nusxa ayrim tekstologik nuqsonlardan qat’iy nazar ma’lum ahamiyatga egadir. Ma’lumki, P.M.Melioranskiy nashrga tayyorlagan nusxa ham ayrim kamchilik va nuqsonlardan holi emas.

Chingizxon haqida Juvoniy, Alouddin Otamlik ibn Muhammad (1226-1283), Temur haqida Sharofiddin Ali Yazdiy (tug’ilgan yili noma’lum, 1554 yilda vafot etgan) yozgani kabi Shayboniynonning hayot yo’lini yoritishda ham xuddi shunday vazifani Muhammad Solih bajardi.

To’g’risini aytganda, Muahmmad Solih Shayboniynonning biografiyasi, nafaqat qalami bilan, balki, qilichi bilan ham uning shon-shuhratini oshirishga hissa qo’shgan.

Muhammad Solihning o’zbek tiliga nazm bilan yozilgan “Shayboniynoma” asari badiiy saviyasining yuksakligi, tilining soddaligi bilan ahamiyatlidir. Dostonning asl nusxasi topilmagan, ammo shoirning hayotligida Qosim kotib tomonidan 1510 yilda ko’chirilgan nodir nusxasi Venada saqlanmoqda.

Asar Shayboniy va Temuriylar o’rtasidagi kurash tarixiga bog’langan bo’lib, 1499 yildan 1506 yillar orasidagi voqealarni o’z ichiga oladi. “Shayboniynoma” asari 76 bob yoki 4456 baytdan iborat.

Manbalardagi biroz sonli she’riy injular “Shayboniynoma”dagi lirik she’rlar bilan birgalikda Muhammad Solihni usta lirik shoir sifatida gavdalandiradi. U lirikada, garchi asosan traditsion mavzular doirasida qolgan bo’lsa ham, o’z original adabiy uslubni yarata olgan, tur xil badiiy usul va til vositalaridan mohirlik bilan foydalangan, yangi-yangi obrazlar, lavhalar yaratgan.

Biroq Muhammad Solihning adabiyot tarixidagi rolini uning bir necha misralarigina saqlanib qolgan lirikasi emas, balki hozirgacha to'la saqlanib qolgan "Shayboniynoma" dostonidan belgilab olamiz. Muhammad Solih 1506 yilda "Shayboniynoma"ni yozib tugatadi. Uning bu dostonidan keyin yana qanday asarlar (lirik she'rlaridan tashqari) yaratgani ma'lum emas. Sharqshunos G.Vamberi "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" asarida Muhammad Solih "Layli va Majnun" taxlitida bir masnaviy yaratgan deb aytadi. Biroq boshqa manbalarda bu haqda hech qanday ma'lumot yo'q. Ehtimol, G.Vamberi "Noz va Niyoz" manzumasining 1524-1525 yillarda vafot etgan muallifi Solih ismli boshqa bir shoirni yoki 1566-1567 yillarda vafot etgan Solih Ibn Jalolni (Layli va Majnun) nomli doston muallifini Muhammad Solih deb o'ylagandir. Har holda, Muhammad Solih asosiy adabiy merosi "Shayboniynoma" bo'lib qolmoqda.

Shuni ham uqtirib o'tish lozimki, Shayboniyxon haqida Muhammad Solih "Shayboniynoma"sidan boshqa bir necha asar ham yaratilgan edi. Bu asarlarning ko'pi bevosita Shayboniyning o'z topshirig'i bilan vujudga kelgan edi. Shunday asarlardan biri Mullo Shodiyning 76 bobdan iborat "Fathnomai xoniy" ("Xonimning g'alaba kitobi") dostonidir. Unda Shayboniyning tug'ilishidan tortib 1501 yilgacha (Samarqandning Shayboniy tomonidan ikkinchi marta istlio qilinishigacha) bo'lgan voqealar bayon etilgan.

Shayboniy saroyida bir necha yil xizmat qilgan Binoyi ham "Shayboniynoma" va "Futuhoti xoniy" "Xonning g'alabalari" degan ikkita tarixiy asar yozgan¹. Bu asarlar Shayboniyning bolalaik chog'laridan tortib 1502 yilgacha bo'lgan sarguzashtlarini hikoya qiladi.

Tarixchi Ro'zbehon Shayboniyning 913-914 (1508-1509) yillardagi urush-yurushlarini tasvirlab, "Mehmonnomai Buxoro"² asarini yozadi. Bu asarda tarixiy voqealardan tashqari, Shayboniyning diniy marosimlarda, bahslarda ishtirok etishi ham hikoya qilinadi.

Bulardan tashqari, o'zbek tilida noma'lum muallif ham Shayboniynoma haqida asar yozgan. Unda muallif turkiy xalqlarning qadim zamonlardan boshlab Shayboniy vafotiga qadar bo'lgan tarixi haqida so'zlaydi. Ammo asarning dastlabki qismlarida tarixiy voqealar emas, balki afsona va rivoyatlar hikoya qilinadi³.

¹ Aftidan, Binoiy avval "shayboniynoma"ni yozadi, keyin shu asarni qayta ishlab, kengaytirib "Futuhoti xoniy"ni yaratadi.

² Ro'zbehonning aytishiga qaraganda, asrning asl nomi "Safarnomai Buxoro" bo'lib, Sjhayboniyxon uning nomini "Mehmonnomai Buxoro" deb o'zgartirgan.

³ I.Beryozin uni asli va ruscha tarjimasin bilan birga "Shayboniyda" deb atab, Qozonda nashr ettiradi.

Yuqoridagi asarlarda, garchi boy faktik materiallar berilsa ham, lekin tarixiy voqealar feodal sinfi manfaatlari nuqtai-nazaridan yoritiladi va sulolalarning toj-taxt kurashlari tendentsioz tarzda tasvirlanib, Shayboniyxon idellashtirib yuboriladi.

1.1. “Shayboniynoma” – tarixiy doston

“Shayboniynoma”ning 1510-1511 yillarda Qosim degan kotib tomonidan ko’chirilgan eng eski yozma nusxasi Venada saqlanadi. Nasat’liq xati bilan yozilgan bu nusxa 218 varaq bo’lib, unda jang va ziyofat manzaralarini tasvirlovchi 9 ta miniatyura ham keltiriladi. Mana shu qo’lyozma nusxa asosida H.Vamberi 1885 yilda Venada dostonning asl matnini va uning nemis tilga qilingan tarjimasini nashr ettirgan edi. 1904 yilda esa shu qo’lyozma asosida mashhur turkshunosi P.M.Melioranskiy Peterburgda “Shayboniynoma”ning asl matnini nashr ettirib, Vamberi nashridagi kamchiliklarni tuzatadi va o’sha nusxadagi ikki miniatyurani ham kitobga kiritadi. Keyinchalik bu asarning ayrim boblari, parchalari. Xrestomatiya va to’plamlardan o’rin oladi, 1961 yilda esa bu asar O’zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti tomonidan to’la bosib chiqariladi.

Muhammad Solih va uning ijodi A.Ibrohimov tomonidan tadqiq etilib, nomzodlik dissertatsiyasi yozilgan (1950 yil).

“Shayboniynoma” Shayboniyxonga bag’ishlangan doston bo’lib, uning Temuriylarga qarshi olib borgan urush va yurishlarini tasvirlaydi.

Doston 8902 misradan iborat bo’lib, 76 bobga bo’lingan. Bulardan 16 bob dostonning muqaddimasidir: I-III boblar diniy – traditsion xarakterdagi boblar bo’lib, IV bob so’z ta’rifi, V-XIV boblar Shayboniyxonning ta’rifi va tavsifiga bag’ishlanadi. XV bobda “Kitob nazmining sababi” bayon etiladi. XVI bob Mullo Abduraximga ataladi. Dostonning asosiy qismi XVII bobdan boshlanadi. Bu boblarda 1499/1500 – 1505/ 1506 yillarda ro’y bergan tarixiy voqealar xronologik izchillik bilan aks ettiriladi; ikki sulola – Temuriylar bilan shayboniylar o’rtasidagi urushlarning oqibati doston syujetining asosini tashkil etadi. Bu qonli kurashlarning shohidi va ishtirokchisi bo’lgan Muhammad Solih o’z ko’zi bilan ko’rgan, o’zi qatnashgan voqealarni hikoya qiladi. Shunga ko’ra, u bunday deydi:

Har ne ko’rdim cherigida bir-bir,

Barchasin nazm ila qildim tahrir.

Dostonda Shayboniyxonning 1499-1500 yillarda Turkistondan Samarqandga qo’shin tortib kelishi, Samarqandni bosib olish uchun dastlabki urushlarning barbod bo’lishi va chekinishi, Buxoro viloyatining hokimi Boqi tarxon va uning qo’shini Dabbusiy qo’rg’onida (hozirgi Ziyovuddin yaqinida) qamal qilib,

Buxoroni bosib olishi, Qorako'l, Qarshi, G'uzor va boshqa joylardagi aholining qo'zg'olonlarini qattiqqo'llik bilan bostirishi, Samarqandni olti oy qamal qilishi, Boburning Samarqandni tashlab chiqishga majbur bo'lishi, Shayboniyxonni Samarqandni, keyinroq Andijon, Toshkent, Hisor, Badaxshon va boshqa viloyatlarni zabt etishi birma-bir bayon etiladi. Doston 1504-1506 yillarda Shayboniyxonning Xorazmga yurishi, uni egallab olib, g'alaba bilan Buxoroga qaytishi tasviri bilan tugaydi.

“Shayboniynoma”ni jangnoma deb atash ham mumkin. Biroq u “Abu Muslim” va “jamshid” tipidagi traditsion jangnomalardan tubdan farq qiladi, chunki bu asarlarda afsonaviy voqealar hikoya qilinib, ularda kishilardan tashqari devlar, jinlar, parilar ham ishtirok etadi, diniy “karomat” va “mo'jizalar” so'zlanadi. “Shayboniynoma”da esa shoir ko'z o'ngida bo'lib o'tgan tarixiy voqealargina bayon qilinadi. Shu bilan birga “Shayboniynoma” Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asari tipidagi qahramonlik dostonlaridan ham o'ziga xos xususiyatlari bilan printsipliy farq qiladi: “Saddi Iskandariy”da tarixiy voqealarni va tarixiy shaxslarning faoliyatini tasvirlash vazifasi qo'yilmaydi. “Shayboniynoma”da esa, shoirning tutgan pozitsiyasidan qat'iy nazar, tarixiy voqea va tarixiy shaxslar tasvirlanadi.

Binobarin, “Shayboniynoma” o'zbek adabiyoti tarixida jangnomaning yangi turidir, u birinchi tarixiy dostonidir.

“Shayboniynoma”ning personajlari tarixiy shaxslardir. “Shayboniynoma”da ikki sulola o'rtasidagi toj-taxt kurashlari tasvirlangani uchun, uning personajlari ham asosan shu ikki sulolaning namoyondalaridir. Dostonda, bir tomondan, Shayboniy va uning hukmdorlari: Sulton Mahmud, Temur Sulton, Jonvafobiy va boshqalar, ikkinchi tomondan, Bobur, Husayn Boyqora, Boqi Tarxon, Sulton Ali, Badiuzzamon va boshqa Temuriy hukmdorlar ko'rinadi. Shoir bu obrazlarni ularning o'zaro feodal kurashlardagi faoliyati, tarixiy voqealar rivojidagi tutgan o'rni va, qisman bo'lsa-da, shaxsiy hayoti, fe'l-atvori tasvirida gavdalanitiriladi. Biroq Muhammad Solih tarixiy shaxslarga hamisha ham ob'yektiv munosabatda bo'lavermaydi.

“Shayboniynoma”da o'zaro urushlar tufayli dahshatli azoblarga giriftor bo'lgan darg'azab qishloq va shahar aholisi – xalq obrazi ham berilgan. Shoir xalq boshiga tushgan kulfat, xarobalik va vayronalikdan qayg'uradi, biroq bu musibatlarning barchasini “taqdir” bilan bog'laydi, Shayboniyga qarshilik ko'rsatgan aholini qoralaydi.

“Shayboniynoma”da shoirning o'z obrazi ham bor. U tarixnavis – nozim, voqealar ishtirokchisi sifatida, g'oyaviy qarama-qarshiliklari bilan birga gavdalanadi. Ayniqsa lirik o'rinlar shoir shaxsiyatidagi qarama-qarshiliklarni yanada chuqurroq va to'laroq ochib beradi.

Muhammad Shayboniy (1451-1510) Dashti Qipchoqda kochmanchi o'zbeklarning yirik davlatini vujudga keltirgan Abulxayrxonning nabirasidir. Abulxayr o'lganidan keyin uning toj-taxtini egallash uchun boshlangan kurashlar chog'ida Shayboniy (shoh Budog'ning o'g'li) Buxoroga qochib keladi. Buxoro hokimi Abdulali Tarxon uni yaxshi qabul qiladi. Shayboniy bir necha yil Buxoroda o'qiydi va bobosining davlatini tiklash maqsadida Turkiston atrofiga qaytib keladi. Biroq yetarli harbiy kuch to'play olmaydi. Keyinchalik Temuriylar davlatining inqirozidan foydalanib, Movarounnahrning ichki rayonlari (Samarqand, Buxoro va boshqa joylar)ga bostirib kira boshlaydi. U ayniqsa Boburga qarshi uzoq va qattiq kurash olib boradi. Shayboniy qonli kurashlar bilan Movarounnahr hokimiyatini qo'lga kiritadi, uzoq tayyorgarlik va urinishlardan keyin 1507 yilda Xurosonni egallaydi va so'ngra Eronni ham istilo qilmoqchi bo'ladi. Biroq Eron shohi Ismoil 1510 yilda Marv yaqinida uni 17 ming kishidan iborat qo'shini bilan birga qamal qilib, mag'lubiyatga uchratadi va Shayboniyni o'ldiradi.

Shunday qilib, Shayboniy butun umrini toj-taxt uchun bo'lgan kurashlarda o'tkazgan tipik feodal hukmdordir. Shu bilan birga u lashkarboshi va shoir ham edi, u o'z sulolasi manfaatlari uchun ilm-fan, san'at va adabiyot ahllarini, qisman bo'lsa-da, o'z saroyi atrofiga jalb etadi, Temuriylar saroyining tark qilib kelgan Muhammad Solih, Binoiy kabi shoirlarni o'z himoyasi ostiga oladi.

Muhammad Solih Shayboniyni butun hayoti va kurashini hikoya qilib o'tirmaydi. U muqaddimada Shayboniyni sarguzashti haqida qisqacha ma'lumot bergandan so'ng, dostonning asosiy boblarida uning 1499-1506 yillardagi faoliyatini, Temuriyalarga qarshi olib borgan kurashini batafsil so'zlaydi. Shayboniyni adolatli, ma'rifatli va xalqparvar podsho deb ko'klarga ko'tarib maqtaydi, uni ideallashtiradi.

Muhammad Solih Shayboniyni "Tengrining yerdagi soyasi" deb ataydi, uning har bir tadbirini mamnuniat bilan qutlaydi, uning har bir zafarini dini va shariatning zafari deb ta'riflaydi, unga yangi g'alabalar tilaydi. Shayboniyni "Jamshidi davron", "Sulaymoni zamon" deb atab, uni Iskandar, xalifa Haydar va boshqalar bilan tenglashtiradi. Ilm-fanda u go'yo o'z asrining Ibn Sinosidir, u o'z hikmatlari bilan har qanday mushkulni ham hal etishga qodirdir, uning kasb-hunarda tengi yo'q; adabiyot sohasidagi uquvi va iste'dodi esa yanada ziyodroqdir. U, Muhammad Solihning fikricha, boshqa xonlar kabi majlis qurmaydi, aysh-ishrat surmaydi va hakoza.

Muhammad Solih madhiyxonlik ruhida o'z ta'rif va tavsiflari bilan Sahyboniixonni ideallashtirib, uning obro'-e'tiborini oshirishga, yangi sulolaning hokimiyatini mustahkamlashga intilgan.

Biroq Muhammad Solih ob'yektiv tarixiy haqiqatni chetlab keta olmaydi. U kechmish voqealarni hikoya qilari ekan, istar-istamas, Shayboniixon va uning

qo'shinining bosqinchiligini, el-yurtni talon-taroj qilishini, ma'naviy-ahloqiy yaramas xatti-harakatlarini fosh qilib qo'yadi.

Ikki sulolaning toj-taxt uchun kurashi natijasida ko'p shahar va qishloqlar xarob bo'ladi, minglab kishilar qirilib ketadi, dahshatli ochlik va ommaviy kasallik vujudga keladi. Bualrning barchasiga Temuriylar kabi shayboniylar ham bab-barobar aybdor edilar. Kitobxon o'zaro feodal urushlarning dahshatli oqibartlarini ko'rar ekan, shoirning talqinidan qat'iy nazar, Shayboniy va uning xatti-harakatlaridan g'azablanamay qolmaydi. Shoir Shayboniyning shahar va qishloqlarga bostirib kirishni tasvirlab:

“Hech kim qolmadi ul vaqt quruq,
Yo'q erdi molu qiz olurg'a so'ruq”

yoki:

“Bottilar molg'a lashkar borcha,
Bo'ldilar boy-tavongar borcha”, - deydi.

“Molu qiz olish”dan Shayboniixonning o'zi ham chetda qolmaydi. U Boqi Tarxonni yengib, Buxoroni qo'lga kiritganida, 12 yashar norasida qizni xotinlari qatoriga qo'shib oladi. Shayboniy Xonikadan va Alojaxonlarni hiyla-nayrang bilan yengib, asir olar ekan, ularning xotin-qizlari sha'niga haqoratli so'zlar aytadi.

Shayboniixonni

“O'zga xonlar kabi majlis qurmas,

Ayshu ishrat soridin dam urmas.

Boda ichmoq sori bo'lmas myil,

Bir zamon ishidin bo'lmas g'ofil”, -

deb ta'riflagan Muhammad Solih, istar-istamas, uni aysh-ishratga berilib ketgan xon sifatida ham tasvirlaydi.

Muhammad Solih Shayboniixonning xatti-harakatlarini ba'zi bir tarix kitoblarnining mualliflariga qaraganda ancha ob'ektiv bayon etadi. Masalan, 1501 yilda Samarqandning olinishi va Sultonali Mirzoning onasi Zuhrabegimning yengiltagligi qo'l kelgan edi. Zuhrabegim, agar Shayboniixon meni o'z nikohiga olsa, Samarqand darvozasini ochib beraman deb, Shayboniixonga elchi yuborgan va bu qarorga o'g'lini ham rozi qilgan edi. Shunda Shayboniy ham o'zini Zuhrabegimga “oshig'i beqaror” qilib ko'rsatadi. Shayboniixon Zuhrabegimga “ishq-muhabbat izhor qilib”, Samarqandni qo'lga kiritadi, so'ngra ko'p o'tmay Sultonali Mirzoni o'limga hukm qiladi, uning onasini birovga xotinlikka berib yuboradi.

Shoir Zuhrabegimning yengiltaglikligiga g'azablanib, uni la'natlaydi. Biroq shoir Shayboniixonning bu qilmishidan g'azablanganini oshkor ayta olmaydi, uni la'natlay olmaydi, go'yo u buni kitobxonning o'ziga havola qiladi.

Shayboniylar bilan Temuriylar o'rtasidagi toj-taxt kurashlari "Shayboniynoma" dostoning asosiy va yetakchi konfiiktidir. Doston muallifi shu konflikt aspektida bir necha Temuriy hukmdorning epizodik obrazini yaratadi hamda inqirozga yuz tutgan Temuriylar saltanati haqida fikr yuritadi. U Temuriylar saltanatining inqirozini tasvirlaydi, Temuriylarning o'zaro ixtiloflarini, toj-taxt talashishlarini va ma'naviy tubanliklarini to'g'ri tanqid qiladi. Dostonning muqaddimasida shoir Temuriylar haqida so'zlar ekan:

...Bu jamoatki ko'rarsan holo,
Tana-tirno bilan boshlab g'avg'o.
Ichadurlar kecha-kunduz boda,
Dinu imon soridin ozoda.
Bir-biri birla muxolif borcha,
Bir-biridin taqi hoyif borcha.
Atodin bordur o'g'ul noxushnud,
Atoni o'g'ul etoy der nobud.
Ato ham bordur o'g'uldin bezor,
O'lturur o'g'lini yig'latib zor...
Qaydakim chodirini tikti nifoq-
Qolmas ul tegrada osori vifoq.
Mulk ilgidin chiqaru taxt ila toj,
Taxtu toj ahlini etarlar ixroj, - deydi.

Darhaqiqat, toj-taxt talashlari va ishratparastlik Temuriylar saltanatining halokatini yanada yaqinlashtirgan edi. Ichki kurashlar, ziddiyatlar girdobida qolgan Temuriylar Shayboniyxonga qarshi kurashda bir yoqadan bosh chiqarib, o'z kuchlarini birlashtira olmagan edilar. Ko'p yillar davomida Shayboniyxonga qarshi Zahriddin Muhammad Boburgina deyarli yakkama-yakka jang olib borgan edi.

Muhammad Solih Temuriylarning bir-birga nisbatan adovat hamda xusumatini Husayn Boyqoro va uning o'g'illari misolida haqqoniyat bilan ochib tashlaydi. Shayboniyxon Xorazmni bosib olgandan keyin Husayn Boyqoro o'z toj-taxti qo'ldan ketib qolish ehtimolidan hadiksirab, Temuriy hukmdorlarni va shahzodalarni yig'ib, dushmanga qarshi birgalikda kurash olib borishga qaror qiladi. Biroq temurilar o'zaro ziddiyatlarni yengolmaydilar, maishatbozlikdan qutula olmaydilar:

...Ul kun ichku bilan o'tkordilar,
Mast bo'lib majlisdin bordilar...

Muhammad Solih Temuriylarni shu xilda qoralaganda, shubhasiz, haqli edi. Biroq, shuni ham uqtirish lozimki, u bu aybnomani Shayboniyxonni idelalashtirishga

bir vosita qilib qo'yadi. Shayboniyxonni taxtga chiqishini qonuniy bir hodisa deb ta'riflaydi, uni "elga inoyatlar qiluvchi" "Madhi zamon" deb ataydi:

Dedilar borchamanga donolar,
Kim: "Adam bo'lg'usidur mirzolar,
Davlati oli Temur¹ ketgusidur,
Navbat o'zga kishiga yetgusidur.
Ul kishi bordur Shayboniyxon,
Xoni Shayboniyduru Mahdii zamon,
Holi oning yeri Turkistondur,
O'zbek eliga muazzam xondur...

Ittifoq anda-u dini imon.
Zarbu shamsheru namozu qur'on,
Mulk ul olmasa, kim olg'usidur?
Borcha ofoq ango qolg'usidur".

Bundan tashqari, Muhammad Solih Temuriylarga, ayniqsa Boburga haddan ortiq tendentsioz munosabatda bo'ladi. U Boburni mumkin qadar qoralashga, salbiy holda ko'rsatishga intilib, uning faoliyatidagi ijobiy tomonlarni e'tirof qilmaydi. Uning tasvirida Bobur zolim va johil bir kishi sifatida gavdalanadi. Muhammad Solih Boburning Samarqandni egallab olishini bayon qilar ekan:

Chu Samarqandni oldi Bobur,
Xalq aro tarifqa soldi Bobur.
Husn maydoniga zolim kirdi,
Zulm bozoriga ravnaq berdi...

Deydi. U Boburga nisbatan tendentsioz kayfiyatda bo'lgani tufayli, Boburning Samarqandni olishga xiyla xayrixohlik bilan qaragan shahar aholisini haqorat qilishgacha borib yetadi:

...Ushbu so'zlar bilan ul nodon el,
Qoysi nodonki bo'lak hayvon el,
Shartlar ayladi alr mustahkam,
Qildilar qal'alarini mahkam...

Shunday qilib, Muhammad Solih, bir tomondan, Temuriylar saltanatining inqirozi va halokatini to'g'ri tasvirlashga intilsa, ikkinchi tomondan, tendentsiozlik kayfiyatlariga berilib, tarixiy haqiqatni soddalashtiradi.

¹ Oli temur – Temur xonadoni, temur avlodi.

Ikki sulolaning toj-taxt kurashi feodal-klerikal ekspluatatsiya ostida ezilib yotgan mehnatkash aholini yanada qattiqroq xonavayron qilgan edi. Dahshatli urushlarda ko'pgina shahar va qishloqlar xarob etilgan, elning mol-mulki talon-taroj qilingan, yigitlarning qoni behuda to'kilib, qizlarning nomusi tahqirlangan, ota-onalar zor-zor yig'lagan, qon qaqshatilgan edi.

“Shayboniynoma”da xalq obrazi mana shu urushlar va ularning oqibati aspektida tasvirlanadi; shoir ikki sulola o'rtasidagi urush va uning oqibatlariga “taqdirning ishi” deb qarashi hamda Shayboniynoma yon bosishi, uni oqlashi va feodal klerikal e'tiqodlariga qaramay, xalq ommasining feodal bosqinchilariga bo'lgan nafrat va g'azabini, uning vatanparvarlik va qahramonlik ruhini, o'zaro urushlarning dahshatli lavhalarini tasvirlaydi, joy-joyi bilan mazlum va jabrdiydalar holiga achinadi. Bu bilan Muhammad Solih o'zbek klassik adabiyotida realism tendentsiyalari rivojiga katta hissa qo'shadi.

Xalq ommasi, jumladan Samarqand aholisi Temuriylar hukmronligi davrida ko'p jafoga chekkan edi. Binobarin, Muhammad Solih:

Necha yil muncha balolar bor edi,

Anga anvon jafolar bor edi, -

deydi. Biroq aholi boshqa bir podshoning kelishi bilan o'z ahvoli yaxshilanmasligini, ikki sulolaning toj-taxt talashi o'ziga faqat ochlik, xarobalik va o'lim keltirishini bilan edi. Shuning uchun aholi Samarqandni mardona mudofaa qilishga otlanadi:

Olishib qal'ani biz soqlog'oli,

solishib biz qal'ani soqlog'oli.

Itlarimizgacha hosil so'yoqli,

It eti eyirg'a ko'ngil qo'yoli.

Angocha soqlog'oli qo'rg'onni,

Joniga yetkuroli ul xonni.

Boshqa shaharlar aholisi ham samarqandliklar kabi, Sahyboniynoma qo'shiniga qarshi mardona kurashga otlanib, qo'zg'olonlarini qattiq mudofaa qiladi. Do'q-po'pisalar g'azabkor va isyonkor xalqning ruhini so'ndirolmaydi. Sulton Mahmudning Qorako'l aholisiga surbetlarcha aytgan balandparvoz so'zlariga qarshi aholi:

Dedilar: “Har na qilursiz, qilingiz!

Urushur bo'lsangiz, emdi kelingiz!..

Biz boshimizni ko'rubmiz onda,

Yo'qtur hech ishimiz jonda.

Ko'chamiz mahkam erur, qo'rg'on ham,

Ola olmas ani sulton, xon ham". –

deydi va mudofaa jangiga otlanadi. Biroq xalq ommasi ikki sulolaning toj-taxt urushlari oldini aytolmaydi, Shayboniyxonning hujumlarini daf eta olmaydi, u Temuriylarning jabr-zulmidan najot topmay turib, shayboniylarning bosqini va taloniga giriftor bo'ladi.

Shayboniy:

Bizga yo'q hech tarafdin tashvish,

Qabomoqdin base yo'q yaxshiroq ish, -

deb shahar va qo'rg'onlarni qamal qilish, aloqa yo'llarini kesib qo'yish, aholini oziq-ovqatsiz, suvsiz qoldirib darmonsizlantirish taktikasini qo'llaydi. Jumladan, u Samarqandni 6 oy, Qarshi va Andijonni 2 oy qamal qiladi. Qamal ko'pincha avji pishiqchilik mahaliga to'g'ri kelar edi. Xalq yil bo'yi peshona teri to'kib yetishtirgan hosilini yig'ib ololmay, jonini saqlab qolish uchun, shahar va qo'rg'onlarga chekinishga majbur bo'lar, tez orada oziq-ovqati tugab, ochlik va qahatchilik va o'lat boshlanar, ming-minglab kishilar qirilib ketar edi.

Shayboniyning Samarqandni qamal qilishi ham pishiqchilik vaqtida boshlangan edi. Aholi dala-dashtni tashlab shaharga chekinishadi, Shayboniy qo'shini butun uy-joy, ekin-tekinni egallab oladi, shahar ichidagi aholi ochlikdan qirila boshlaydi. Bu manzarani Muhammad Solih quyidagicha tasvirlaydi:

...Tashqari mevayu oshliq bisyor,

Har na lashkarga kerak, bor tayyor...

Tashaqri bog'lar ichra anhor,

Ichkari suvsiz ulus yig'lab zor...

Hazrati xon cheriki xurramu shod,

Fikru anduh so'zidin ozod.

Bog'lar ichra qilib ayshu nishot,

Tushubon sabzasidin sabz bisot.

Mevalardin tuzub asbobi farog',

Jannate har biriga bir bog'...

Tashaqri meva chu bisyor o'ldi,

Ichkari xalq dilafkor o'ldi.

Tashaqri meva sarosar pishti,

Ichkari ochlig'idin el shishti...

Olti oy chekti bu qo'rg'on qaboli,

Bo'lmadi hech tarafdin xoli.

Mazlum xalq shahardan chiqib, o'z ekin-tekiniga o'g'irlikka kirishga majbur bo'ladi. Kuzning hosilidan mahrum bo'lgan el shiddatli qishning hujumiga duch keladi:

Chun Samarqand bu nav' bo'ldi xarob,
Bo'ldi ko'p qahat bo'lurg'a asbob.
Kuz bu nav' erdi ulusning holi,
Yozga shahar o'ldi ulusdin xoli.
Qish qattiq keldiyu ko'p yog'di qor,
O'ldi ochu yalang'och el bisyor...

Shoirning tasvirlashicha, bu dahshatlardan go'yo ko'k ham alam chekadi, u "mo'ldur-mo'ldur" ko'z yoshi oqizib, ko'cha-ko'yda yotgan o'liklarni yuvadi, so'ngra qor yog'ib, go'yo ularni kafanga o'raydi:

Avvalo bir necha yog'di yomg'ur,
Tomdi ko'kning yoshi mo'ldur-mo'ldur.
Yog'di yomg'ir so'ngidin muncha qor
Kim, o'luklarga qilib mehr izhor.

Faqat Samarqand aholisi emas, balki qamal qilingan boshqa joylarning aholisi ham shunday dahshatga duch keladi. Chunonchi, Urganch qo'rg'oni qamal qilinganda, kishilar ochlikdan o'lmaslik uchun eshak, it, hattoki odam etini yeishga ham majbur bo'lganlar:

Eshaku it edi doru bo'ldi,
Davr qo'rg'onda bu tavr evruldi...
Edilar yoshgina o'g'lonlarni,
Ju'din¹ qutqoribon jonlarni.

Qamalda qolgan Qarshi aholisi qahatchilik va ochlik ustiga o'lat balosiga ham giriftor bo'lgan edi:

Tashqari elga g'animat tushti,
Ichkari elga o'lat yopushti.
Goh uch yuz kishi o'ldi bir kun,
Goh o'n kent eli o'ldi bir kun...
Ikki oykim qabol erdi onda,
Oz kishi qoldi o'shul qo'rg'onda.
Qolgani ham bori bemor edilar,
G'ussai g'am qo'lida zor edilar...

¹ Ju' – ochlik.

Qamal bilan el-yurtni toliqtirib, shahar va qo'rg'onlarni bosib olgan Shayboniy qo'shini aholining boshiga yangi-yangi dahshatlar soladi, minglab gunohsiz kishilar o'rta asrning eng dahshatli qiynoqlari bilan o'ldiriladi.

Shu davrning boshqa tarixiy yodgorliklari ham Shayboniyxonning tinch ahvoliga mislsiz zulm ko'rsatganini hikoya qiladi. Jumladan, Shodiy "Fathnomai xoniy"da Sahyboniyxonning Dabbus qal'asini bosib olib, yosh-qari demay ko'p kishilarni qirib yuborganini aytadi.

Shayboniyxon qamal va o'ldirishlar bilan cheklanib qolmaydi. U el-yurtning mol-mulkini talon-taroj qiladi, kishilarning xotini va qizini tortib olib, ularning sha'niga isnod keltiradi. Xondamir "Habibus-siyar"da "Shayboniyxon hukm qildiki, qo'shinlar u viloyat aholisining butun mollarini talon-taroj qilsinlar..." deydi. Shayboniyxon qo'shinining talonchiligi "Sahyboniynoma"da ham faktlar asosida keng tasvir qilinadi. Minglab hisorliklarni qirib tashlagan Shayboniyxon qo'shini xalqni talashga kirishadi. Hisor aholisi mol-mulkidan va o'g'il-qizlaridan judo qilinadi:

Qoysi qizni topa olmay hayron,
Qoysi xotuni bilan sargardon.
Qoysi inisidin ayrilg'on edi,
Ohu faryodu fig'on qilg'on edi...
Qiz: "Ono" deb chekibon vovayloh,
Ano: "Qiz" deb qilibon nolayu oh...
Xullas, Shayboniy qo'shini:
Oldilar o'lja olo olg'uncha,
Soldilar qo'lni solo olg'uncha.

"Tangrining soyasi" Sahyboniyxonning bosqinchilik faoliyati xalqning boshiga shunday mash'um kunlarni solgan edi. Shoir bularning barchasini birma-bir chizib ko'rsatadi. Ammo ko'p o'rinlarda u xalqni "dinsizlikda" va "isyonkorlikda" ayblaydi, feodallarning xalqqa keltirgan hamma musibatalrini, qonlarning daryo bo'lib oqqanini va hakozlarni "tangrining irodasi" bilan bo'lgan ish deb tushuntirishga harakat qiladi. Masalan, Samarqand qamalining oqibatlarini tasvirlab:

Tengri ul qavmni andoq qildi,
Kim alar boshiya bu kun keldi.-
deydi. Bu bilan u Shayboniyxonni oqlab qolmoqchi, uni himoya qilmoqchi bo'ladi.

Shunday qilib, Muhammad Solih ikki sulolaning toj-taxt urush aspektida xalq hayotini, xalqning moddiy va ma'naviy ahvolini, xalqning bosqinchilik urushlariga qarshi noroziligi, g'azabi va nafratini, uning vatanparvarlik va qahramonlik his-tuyg'ularini, o'zaro feodal urushlarning xalq boshiga keltirgan uqubatlarini rostgo'ylik

bilan tasvirlashga intiladi, biroq u bunda izchilik ko'rasata olmaydi, feodal aristokratik tendentsiyalikka berilib ketadi.

Muhammad Solih feodal-klerikal muhitning farzandi, feodal-aristokrat tabaqalarning namoyondasidir. Binobarin, uning dunyoqarashi, jumladan, siyosiy e'tiqodi yashagan muhitning ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari bilan, uning o'z ijtimoiy mavqei bilan izohlanadi.

Muhammad Solih jamiyat hodisalarini idealistik nuqtai nazardan idrok etadi. "Yo'qsillik" va "boylik"ni, toj-taxtni, hatto o'zaro urushlarni "xudoning amr-irodasi"ga, "taqdiri azal"ga bog'laydi. Uning fikricha, podsho "xudoning soyasi"dir.

Madomiki shunday ekan, xudo tomonidan yaratilgan barcha boyliklarning ham egasi mana shu "xudoning soyasi" – podshodir; Podsho siyosiy hokim bo'lish bilan birga, sin va shariatning ham homiysidir. Binobarin, Muhammad Solih feodal-teokratik tuzumni himoya qiladi, bunday tuzumni abadiy, o'zgarmas bir narsa deb hisoblaydi.

Biroq, shunga qaramay, Muhammad Solihning feodal tuzum haqidagi mulohazalarida o'z davri uchun radikal ahamiyatga ega bo'lgan elementlar ham yo'q emas. U Navoiyning podsho va xalq haqidagi ayrim fikr-qarashlarini davom ettirib, podsho xalqqa g'amxo'r, uning osoyishtaligi uchun kurashuvchi kishi bo'lishi lozim, deydi:

Shoh uldurki, yesa el g'amini,
Doim o'ziga desa el g'amini.
Istamay o'zining oroyishini,
Istagay xalqning osoyishini.
Nafs uchun aylamas sultonliq,
Qilmasa ahli havodek xonliq...
Arsayi mulkni yobon bilsa,
Elni-qo'y, o'zini cho'ponbilsa.
Qo'yini o'tga, suvga yetkursa,
Orug'ini o'ziga keltursa
Kunduzi o'tlo(t)sa alarni xushhol,
Qilmasa bo'riga zoru pomol...
O'g'ridin bo'lsa nigohdor kecha,
Bo'lmasa o'g'ri bilan yor kecha...

Muhammad Solihning fikricha, davlatni boshqarish va el-yurtning osoyishtaligini himoya etish uchun davlat boshliqlari, podsho va uning amir-amaldorlari ahil bo'lishi, bir yoqadan bosh chiqarmog'i kerak, nizo-adovat davlatni

halokatga olib boradi, ahillik esa uni mustahkamlaydi, rivojlantiradi, ko'p noahil kishidan ozroq ahil, ittifoq kishi yaxshiroq:

Ming kishi muttafiqlik etsa ishini,
Bosar, albatta, bu yuz ming kishini.

Shoir toj-taxt uchun urush ochuvchi va shu bilan elning qahr-g'azabini uyg'otuvchi feodal hukmdorlarni la'natlaydi:

Anga la'natki, qilib mulk talab,
El buzulmoqlig'iga bo'lsa sabab.

Muhammad Solihning davlat va davlat boshliqlari haqidagi bu mulohazalari uning ma'lum darajadagi insonparvarlik va xalqparvarlik intilishlari zaminida vujudga kelgan edi. Bu mulohazalar uning orzu va ideallari edi.

Temuriylarga tamomila salbiy munosabatda bo'lgan Muhammad Solih ulardan bu orzu va ideallarning amalga oshishini kutmas edi. U Shayboniynoma katta umid bilan qarar edi, lekin uning umidi puchga chiqdi. Shuning uchun Shayboniynomni shoir o'z asarining ba'zi yerida ko'klarga ko'tarib maqtasa, idellashtirsa, ba'zi yerlarida g'ayri ixtiyoriy suratda uni bosqinchi va zolim hukmdor sifatida g'avdalantiradi. Muhammad Solih Shayboniynomni adolatli va xalqparvar hukmdor sifatida g'avdalantirmoqchi bo'ldi. Lekin u buning uddasidan chiqolmas edi, chunki u [xayolida esa boshqa Shayboniynomni ko'rdi.] xayolida boshqa Shayboniynomni, haqiqiy hayotda esa boshqa Shayboniynomni ko'rdi. Xayolidagi Shayboniynomni maqtadi va ideallashtirdi, haqiqiy hayotdagi Shayboniynomni esa, qisman bo'lsa ham, fosh qildi. Muhammad Solihning Shayboniynomni adolatli va xalqparvar hukmdor sifatida g'avdalantira olmaganligi, aslida uning katta ijodiy yutug', realistik tendentsiyalari bilan, qarama-qarshi fikr-mulohazalariga qaramay, o'zbek adabiyoti tarixidan munosib o'rin egallagan.

1.2. "Shayboniynoma"ning badiiyligi va tili

"Shayboniynoma" mavzusi va mazmuni hamda badiiy xususiyatlari va tili bilan o'zbek klassik adabiyoti tarixi taraqqiyotidagi yangi, muhim hodisa bo'ldi. "Shayboniynoma" o'zbek dostonchiligining yangi janrida – tarixiy dostonchilikda to'ng'ich asardir. U fantastik voqea yoki romantik sarguzashtlarni emas, balki konkret tarixiy voqealarni hikoya qiladi. Undagi qahramonlar mana shu tarixiy voqealarning rivojida ma'lum o'rin tutgan kishidir. Shoir 1499-1506 yillarda ro'y bergan voqealarni – ikki sulolaning siyosiy hokimiyat uchun kurashini xronologik izchillik bilan tasvirlab, dostonning kompozitsion birligi va mukammalligiga erishadi. Voqealar doirasi kengayib, murakkablashib boradi. Kitobxon Movarounnahr va Xurosonning turli shahar va qishloqlarida, tog'-cho'llari, bog'-rog'larida ro'y bergan voqealar bilan

tanishadi, ikki sulolaning o'zaro kurashi voqealar rivojining yetakchi chizig'i bo'lib qolaveradi. Asar qahramonlari mana shu voqealar bilan birga gavdalanadilar, ularning sarguzashti va xatti-harakati voqelalar zanjirining uzviy bog'liqligini tashkil etadi, ularning ma'naviy qiyofasi shu aspektda o'ziga xos xususiytlari bilan mujassamlashadi.

“Shayboniynoma” o'zbek klassik adabiyoti realistik tendentsiyalarni rivojlantirishda qimmatli hissa bo'lib qo'shilgan asarlardan biridir. Muhammad Solih o'rni bilan tarixiy faktlarni xiyla ob'yektivlik, rostgo'ylik bilan tasvirlaydi. Shuning natijasida ko'p o'rinlarda faktlar tasviri bilan shoirning ijtimoiy-iqtisodiy e'tiqodi, sulolalar kurashiga tendentsioz munosabatda bo'lish o'rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Shoir Shayboniixonni adolatli va xalqparvar podsho sifatida tasvirlamoqchi bo'ladi, biroq faktlar uni toj-taxt uchun hech narsadan qaytmaydigan tipik feodal hukmdor sifatida gavdalantiradi. Bularning barchasi “Shayboniynoma”da realizim tendentsiyalarini keltirib chiqaradi. Realism tendentsiyalari doston badiiy uslubining eng muhim xususiyatlaridan biriga aylanadi. Realism tendentsiyalari faktlarning mazmunidagina emas, balki ularni bayon etish va ifodalashning badiiy usullarida, badiiy vositalarida, xullas, mazmun va shaklning birligida ravshan namoyon bo'ladi.

Shu jihatdan qaganda, “Shayboniynoma”ning eng muhim badiiy usullaridan biri qarshilantirishdir. Bu usul voqealar, obrazlar va xarakterlarning mohiyatini, ularning konfliktini ochishga xizmat qiladi. Shoir shu usul bilan feodal urushlarning dahshatli oqibatlarini, ayniqsa qamal qilingan shahar va qo'rg'onlarning ahvolini to'laroq va mukammalroq yoritishga erishadi. Misollar: Buxoro qamali tasviri (tasvir Shayboniy so'zi bilan boshlanadi):

...Mevalar yettiyu g'am ketti bari,
Bir-biri so'ngidin yeti bari...
Sohibi¹ jilvada bo'ston ichida..
Qon yutub sohibi² qo'rg'on ichida...
Nor rang olg'och noristong'a,
Tushti o't g'ussasidin qo'rg'onga.
Tashqari obilan³ o'lg'ach xushbo'y,
Bo'ldilar shahr eli obro'y.
Tashqari bog'lar ichra anhor,
Ichkari suvsiz ulus yig'lab zor...

¹ Sohibi – uzum.

² Sohibi – egasi.

³ Obi – behi.

Samarqand qamali tasviri:

...Tashqari meva chu bisyor o'ldi,
Ichkari xalq dilafkr o'ldi.
Tashqari meva sarosar pishti,
Ichkari ochlig'idin el shihsti.

Qarshi qamali:

...tashqari sabzayu sahroyu bahor,
Ichkari jibayu dardu dili zor...
Tashqari ayshu nishotu suhbat,
Ichkari mehnatu ranju zahmat.
Tashqari elga umedi jovud,
Ichkari el bori jondin noumid.
Tashqari elga g'animat tushti,
Ichkari elga o'lat yopushti...
Iki oykim qabol erdi onda,
Oz kishi qoldi o'shul qo'rg'onda.

Bu lavhalar mudofaa bilan gavjum, qamal qilingan shahar va qo'rg'onlarning ichi bilan ularning tashqarisi, qamal qilingan kishilar bilan qamal qiluvchilar, qamal qilingan kishilarning ohu-nolasi bilan qamal qiluvchilarning ayshu-ishrati, ochlik bilan to'qlik, qayg'u-musibat bilan shodlik, umid bilan noumidlik bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Shoir qarshilantirish usulida badiiy til vositalari va so'z o'yinlaridan mohirlik bilan foydalanadi: sohibi (uzum), bo'stonda jilva qiladi, biroq sohibi (bog' egasi) qo'rg'onda qon yutadi; anorzorda anor qizil tus oladi, biroq g'am-g'ussadan qo'rg'onga anor rangidek o't tushadi, tashqari behi xush hidini taratadi, biroq ichkarida kishilarning rang-ro'yi behidek sarg'ayadi.

Shoir o'zaro feodal urushlarning dahshatli oqibatlarini peyzaj tasviri orqali ham san'atkorlik bilan tasvirlaydi. Bunga ayniqsa qamal qilingan Samarqand qishining tasviri yaqqol misol bo'la oladi.

Muhammad Solih traditsion badiiy til vositalariga kamdan-kam murojaat qiladi, u dostonidagi voqealarning mazmuni va kishilarning xarakteriga mos yangi lavhalar, yangi badiiy til vositalari yaratishga intiladi va ko'pincha bunga erishadi ham. Misollar.

Jonlantirish:

Sovuq aylab erdi Sirga ta'sir,
To'ng'ib erdi topa olmay tadbir.

Bo'ldi bisyor uzum birla qovun,
Har biri debdi: "Mening birla ovun",
Jonlantirish va mubolag'a:
Bosh qo'yub ikkalasi bir yerda,
Yuz tuman ko'hu kamar har yerda.

Har birining boshi gardunga yetib,
Har birining qo'li Jayhunga yetib.

Kofning tog'i alar oldida past,
Yo'olida yer deganing bir kafi dast.

Tase:

To'zib | erdi | navkari | Bobirning
Erib | erdi | jigari | Bobirning

Anfora (takror):

Qoysi oq raxttga urdi o'zni,
O'tkarib hind eliga so'zni.

Qoysi deboyi munaqqash topti,
Qoysi g'oli bilan mafrash topti.
Qpysi xurjun bilan xarji oldi,
O'zi tushub, oni o'tg'a soldi...

Sifatlash:

Za'hfaroniy bo'lubon chehralari,
Quruq o'tdek bo'lubon sabzalari.

Boshida bor edi keshlik qalpoq,
Jumrubon yopurub erdi quloq.

Istiora:

Ul sahar xon eli andoqki xuro's,
Chiqtilar tomg'a xon urgach ko's.
Tanbal ahli yotubon evlar aro,

Mokiyondek edilar navhasaro.

(Andijonning olinishi tasviri)

Bir sori yo'lini daryo tutti,
Suvga tushganni balig'lar yutdi.

Majoz:
Otib urdum birisining qo'lig'a,
Yiborib oni otamning yo'lig'a.

Chun sahar kavkabasi qildi zuhur,
Yozdi anbar varaqig'a kofur.

Dema, xon lashkari tutti Sirin,
Yana bir Sir kesib o'tti Sirni.

Shoir personajlarning xarakterini hajv, hazil-mutoiba vositasi bilan ham yoritishga intiladi va bunday o'rinlarda u ko'pincha askiyaga, xalq ta'birlariga murojaat qiladi. Masalan, u Buxorodagi bir mulkdorning xasisligini tasvirlab:

...Yukidin tushsa edi bir olma,
Qo'iga der edi: oni solma.
Benavoe gaar o'lsa bemor,
Tilasa xizmatidin birta nor,
Yuz xashunat qilur erdi og'oz,
Bo'lur erdi g'azabi duru daroz.
Bog' aro meva chog'I bu erdi hol,
Evga kirganda ne bo'lg'ay ahvol?!- deydi.

“Shayboniynoma” aruzning “ramali musaddasi mahbuni mahzuf” (foilotun foulotun foulun) bahrida yaratilgan. Dostonda mana shu yetakchi bahr bilan birga, “ramali musaddasi mahbuni maqtu” (foulotun foulotun fa'lun) bahri ham ishlatilgan. Shu bilan birga, shoir o'zining turli bahlrlarda yaratgan ayrim g'azallarini hamda Shayboniixonning o'z g'azalini to'laligicha va bir g'azalining matlani beradiki, dostonda bir necha bahrning bo'lishi uning ohangdorligini birmuncha kuchaytiradi. O'zbek klassik adabiyotidagi barcha dostonlar kabi masnaviy usulida qofiyalanadi. Shoir ko'pgina baytlarida radiflarni ham keng qo'llaydi.

O'zbek adabiy tilining ham muhim bir yodgorligidir. Bu asar orqali biz o'zbek adabiy tilining XVI asr boshlaridagi taraqqiyoti bilan, o'troq o'zbeklar va ko'chmanchi o'zbeklar tilining o'zaro chatishuv jarayoni kuchayganligi bilan tanishamiz. Shoir o'z dostoniga ko'chmanchi o'zbeklarning tiliga xos bo'lgan ayrim

xususiyatlarni, jumladan, ba'zi shevalardagi "j"lash xususiyatini kiritadi. Muhammad Solih Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tili taraqqiyoti uchun kurash yo'lini davom ettirgan shoirlardan biri bo'lib, u jonli tildan yanada kengroq foydalandi, bu bilan adabiy tilni jonli tilga yaqinlashtirishga ma'lum darajada hissa qo'shdi. U o'zbek tilining boyliklari va grammatik xususiyatlaridan ko'p foydlandi, maishiy hayotga, harbiy texnikaga va boshqa sohalarga doir ko'pgina so'zlarni o'zbek adabiy tiliga kiritdi. U iste'moldan chiqa boshlagan O'bog'o (bobo), obog'a (amak), qobqo (darvoza), cherik (qo'shin), yog'i (dushman) kabi so'zlarni ham ishlatdi. Xasm, jov, a'lo, yog'i, dushman, muxolif; ulus, xalq, el, raiyat kabi sinonim so'zlarni qo'lladi, omonim so'zlar va so'z o'yinlari vositasi bilan quyidagilarga o'xshash chiroyli so'z o'yinlarini yaratdi:

Xon dedi: - bu senga bo'lsin, Boqi,

Tengridin bizga Buxoro boqi.

Tilaboon o'zlarig'a dorug'a, (dorug'a - hokim)

Kim tilab topmadilar dorug'a, (dorug'a - doriga)

Har ne kechib demagaylar Sirdir,

Kishi bilmas bu ne yuzinglig' sirdir.

Realism tendentsiyalari, so'z boyligi, jonli tildan ko'proq foydalanish va grammatik shakllarning barqarorligiga intilish tilini sodda va boy til darajasiga ko'taradi.

"Shayboniynoma", bu muvaffaqiyatlariga qaramay, badiiylik va til jihatidan birmuncha nuqsonlarga ham egadir. Shoirning feodal-aristokratik tendentsiozligi, ayrim tarixiy voqelarni noto'g'ri baholashi dostonidagi realism tendentsiyalarining izchil bo'lishiga va takomillashishiga qattiq halaqit beradi. Shoir bunday o'rinlarda tarixiy voqelarni realistik tasvirlasa ham, lekin realistik bo'lamagan xulosalar chiqaradi. Shuning oqibatida u qahramonlarining xarakterini mukammal ocha olmaydi. "Sulaymoni zamon", "Jamshidi davron" kabi bosma qolipga aylanib ketgan sifatlashlar qahramonlarni yanada mavhumlashtirib yuboradi. Shoir obrazlarning portretlari va ichki kechinmalarini to'laroq tasvirlashga yetarli e'tibor bermaydi. Dostonidagi ortiqcha qaytariqlar va yengil-yelpi ishlangan misralar uning badiiy qimmatiga xiyla putur yetkazgan. Shoir adabiy tilni jonli til boyliklari asosida taraqqiy ettirishga intilishiga qaramay, ba'zan o'zbekcha so'zlarni ishlatish mumkin bo'lgan o'rinlarda ham arabcha va forsha so'zlarni qo'llaydi, ba'zan esa she'riy jumalarning grammatik jihatdan mukammal bo'lishiga beparvo qaraydi, vazn yoki qofiyani moslashtirish maqsadida so'zlarning bir necha talaffuz shakllarini ishlataveradi (ani, oni kabi). Bu hol adabiy tilning yagona talaffuz me'yorlariga tomon rivojlanishiga halaqit beradi, albatta.

“Shayboniynoma” ma’rifiy jihatdan ham qimmatli asardir. Shoir tarixiy voqealarni hikoya qilishda ijtimoiy hayotning turli sohalari, aholining kasb-kori, ma’ishiy turmushi, urf-odati, shahar va qal’alarning topografiyasi, joylarning geografik va tabiiy xususiyatlari, hayvonot va o’simliklar olami, harbiy texnika va jang taktikasi hamda boshqalar haqida ham ma’lumot beradi. Shu bilan birga, u bizni ko’pgina terminlar, nomlar, atamalar bilan tanishtiradi: harbiy qurollar – sog’it, dubulg’a, mongloyliq, zonuband va boshqlar; jangchilarning qo’nim joylari – peshaxona, saroparda, bavarjixona, shomiyona va boshqalar; ot-ulovlar – qamos, yejishi, ubchin va boshqlar; may idishlari – ko’raki, mashraba va boshqalar; matallar – taja, yazdiy, alocha va boshqalar; qabilan va urug’lar – burkut, mangqit (mang’it), nayman, do’rman, o’shun, jaloyir, qorliq, sulduz, nukuz va boshqalar. Bundan tashqari, “Shayboniynoma”da o’nlab o’simliklar, mevalar va ularning turlari, qushlar hamda Adoq, Alvand, Andahud, Ashkamish, Varzob, Qovirkon, Ko’hak, Toysun, Toyqon kabi juda ko’p geografik atamalar tilga olinadi. Bularning barchasi XV asrning oxiri va XVI asrning boshlari hayotini, etnografiyasini, harbiy texnikasi va boshqalarini o’rganishga yordam beradi.

Muhammad Solih o’zbek klassik adabiyotining yirik va iste’dodli namoyondalaridan biridir. Uning “Shayboniynoma” dostoni, g’oyaviy-badiiy ziddiyatlariga qaramay, o’zbek adabiyotida tarixiy janrning, realism tendentsiyalarining va adabiy tilning taraqqiyotiga katta hissa bo’lib qo’shilgan dostondir. Bu doston hozirgi kunda ham ma’lum tarixiy-ma’rifiy va adabiy-estetik qimmatini saqlab kelmoqda.

II bob

“Shayboniynoma” - o’zbek-nemis adabiy aloqlari sarchashmasida

2.1. Herman Vamberi – tilshunos, sharqshunos, etnograf

O'zbek-nemis madaniy va adabiy aloqalarining boshlanishi haqida gapirar ekanmiz, o'zbek adabiyoti yodgorliklarining tarjimalarida mashhur sharqshunos olim Hermann Vamberining xizmatini alohida qayd qilmoq kerak. U Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" dostonini "Uyg'ur tili obidalari va Qutadg'u bilig" degan nom bilan 1870 yil Insburkda va Muhammad Solihning 76 bobdan iborat o'zbekcha qahramonlik eposi "Shayboniynoma" degan nomda 1855 yil Venada dostonning asl matnini va uning nemischa tarjimasini nashr ettirdi. Agar "Qutadg'u bilig" umumturkiy xalqlarning mushtarak adabiy obidasi bo'lsa, "Shayboniynoma" – bu o'zbek adabiyotining obidasi.

Bundan tashqari Hermann Vamberi o'zbek xalqi va Markaziy Osiyo boshqa xalqlar adabiyoti, madaniyati va tarixiga oid asarlar yozgan.

Uning asarlari avvalo ingliz, nemis, fransuz va asta-sekin Yevropaning ko'pgina xalqlariga tarjima qilindi.

Vamberi kim o'zi? – degan savol tug'iladi. Vamberi – venger tilshunosi, sharqshunos olimi, etnografi va sayyohi. U kambag'al venger-yahudiy oilasida tug'ildi. Yoshligidan sharqqa bo'lgan muhabbati tufayli turk va Osiyo tillarini o'rgandi. Bir venger baronining yordami bilan anchagina pul bilan ta'minlangan. Hermann Vamberi 1856 yil Konstantinopolga boradi. U yerda 4 yil o'qituvchi bo'lib ishladi va turk tilini, Sharqning urf-odatlarini yaxshi o'rgandi. 1858 yilda Hermann Vamberi nemischa-turkcha, 1860 yilda esa nemischa-chig'atoycha lug'atlarni nashr ettirdi.

1861 yilda Vengriya fanlar akademiyasining topshirig'iga binoan Tehronga keldi. 20 dan ortiq Yevropa va sharq tillarini bilgan Vamberi Makkadan vataniga qaytayotganida hojilar qo'shilib, darvesh niqobida Mazndoron orqali Balxash qo'ltig'igacha, Turkman cho'llari orqali Xivaga yetib kelgan.

Xiva va Qo'ng'irotg'a borgandan so'ng u Qizilqum orqali Buxoro va so'ng Samarqandga boradi. Qarshi, Maymanada bo'lgandan so'ng Hirot, Mashaxad, Tehron va Trpezond (Tukiyadagi shahar) orqali Konstantinopolga qaytib kelgan.

Vamberi sayyohati o'sha davrda shunchalik hayratomz edi-ki, hatto Yevropada ko'plar unga ishonmaganlar.

1865 yilda Hermann Vamberi Pesht universitetida Sharq tillari professori bo'lgan. U Markaziy Osiyo xalqlarining XIX asr 60 yillaridagi geografik muhiti, tarixiy-ijtimoiy munosabatlari, turmush va madaniy hayoti haqidagi chig'atoy-uyg'ur tillari, tatar-turk tillari va fin-ugor leksikografiyasiga doir asarlar yozdi.

2.2. “Shayboniynoma” – Hermann vamberi tarjimasida

“Shayboniynoma” dostoni Hermann Vamberini badiiy asar sifatida qiziqitirdi. U XV asr oxiri XVI asr boshlarida Markaziy Osiyo tarixi geografiyasi, etnografiyasini, madaniyatini o’rganish uchun “Shayboniynoma”ni ahamiyatini yuqori baholadi. Shuning uchun ham asar tarjimasiga bejizga qo’l urmagan.

Hermann Vamberi o’zi bu haqida shunday deydi: “Maqsadim nemis tiliga ag’daruvchi tarjimon bo’lish emas, men faqatgina Markaziy Osiyoning turkiy adabiyotidan hozirgacha notanish biror bir asarni tarixchilar, etnograflar, turkologlarga yordam berish uchun umumiy mazmunga yaqinroq qilib tarjima qilish edi”.

Hermann Vamberi nashrining tuzilishi quyidagicha:

1. Mundarija – 4-bet;
2. So’z boshi – 13-bet;
3. Asl nusxa matni va nemischa trjima – 1-447-betlar;
4. Kommentariya – 446-449-betlar;
5. Tarjimaning xususiyati shular bilan belgilanadi.

Tarjima poetik tarjima emas. So’z va iboralarning mazmunini ko’proq aniqroq berish maqsadida Hermann Vamberi badiiy tarjima emas, balki taglama tarjima qildi.

Bunda aniqlikka intilish asarga tarixiy xronologik jihatdan yondashishga sabab bo’ldi. Chunki bunday ibora va tasvirning poetik vositalari emas, badiiy obrazlar

ham emas, balki har bir epizodning, voqeaning joy nomlarining, kishi ismlarining va boshqalarning taqdiri juda katta qimmatga ega.

Hermann Vamberi o'zi bu haqida shunday deydi: "Ushbu tarjima haqiqda birinchi navbatda shuni aytish kerakki, o'zbekchadan nemischaga tarjima qilishda menga ikkala tilning qiyinchiliklariga bardosh berishga to'g'ri keldi. Menga, ya'ni nemis bo'lmagan polyglot yozuvchisiga bu dostonni tarjima qilish shunchalik qiyin bo'ldiki, agar bu ishda hurmatli do'stim va haqiqiy inson Ottokor Fan Shlexta Vserdning yordami bo'lmaganda edi, mening harakatlarim behuda ketar edi".

Hermann Vamberi tarjimasining ilmiy qimmatini yuqori baholab shuni aytib o'tish kerakki, o'z navbatida uning tarjimasi so'zning tan ma'nosida badiiy tarjima emas, lekin shunday bo'lsada o'z davrida adabiyot va madaniyat ishlari va aloqlar juda katta ahamiyatga ega.

Masalan:

Qaysiga husni malohat berding,
Olam ahlidin ani ayirding.

Qaysiga ishq, inoyat qilding,
Ani mashhur viloyat qilding.

Qayu xushdil, qayu maxzun bo'ldi,
Qayu Layli, qayu Majnun bo'ldi. (26-bet)

Dem Einen hast reiz und
Korperschönheit verliehen,
Und so vor allen Anderen ihn ausgezeichnet.
Dem Anderen hast Du "Liebe" verliehen,
Und durch "Heiligkeit" ruhm erworben.

Ushbu bayt Hermann Vamberi tarjimasida shunday jaranglaydi:
Biriga sen husn va chiroyli qomat berding,
Va uni hammadan ayirding.

Boshqasiga sen "Ishq", "Muhabbat" berding,
Va bu sehr bilan mashhur qilding.

Biri xursand bo'ldi, biri xafa
Biri Layli bo'ldi, biri Majnun. (11-13 betlar)

Hermann Vamberi tarjimasi so'zma-so'z taglama ekanini ko'rib turibmiz. U har bir baytning obrazligiga e'tibor bermasdan, uning kommunikativ mazmunini berishga harakat qilgan.

Asl nusxada ikkita takror so'z yo'q, asl nusxada bir xil harakat va tushunchani anglatayotgan sinonimlar tarjimada aytgan bir so'z bilan ifodalangan.

Asl nusxada ba'zi bayt kitobiy so'zlar va iboralarni qo'llash bilan birga yuksak uslubda yozilgan.

Tarjimaga esa bularning hammasi neytral bo'yoqda berilgan. Realiylarni iloji boricha aniq berishga harakat qilgan. Hermann Vamberi nemis tilida ularning o'ziga munosib variantini topmagan paytida, ko'pincha transkripsiya usulini qo'llagan.

Bu so'zlar tarjimada katta qiyinchilik tug'dirmaganda esa, u so'zlarning nemischa muqobil variantini izlab topgan.

Masalan:

Ancha o'lib erdi ot birla kuy,
Kim to'lub erdi bori shahri kuy.

Ham sochiq bor edi yulduzdin ko'p,
Ham kiyib Kesh ila Kunduzdin ko'p.

Base bir oygacha to'y erdi,
To'y o'shul shoxga diljo'y erdi.

Hermann Vamberi tarjimasida esa quyidagicha berilgan:

Juda ko'p ot birla kuy borv erdi,
Shahar va qishloq ular bilan to'ldi.

Bu yerda sovg'alar ham yulduzlardan ham ko'p edi,
Kesh va Kundizdan kelgan edi.

Bir oy davom etdi bayram to'y,
Bayram (to'y) shohga yoqqan edi. (343-bet)

So viel Oferde und Schafe waren vorhanden,
Das Stadt und dorf sich mit ihnen füllten.

Auch spenden gab es da zahlreicher als die Sterne,
Die aus Kesch und Kundus angelangt waren.

Einen Monat lang dauerte das Fest,
Das fest, das des Fursten wohlgefallen, erregte. (Seite 343)

Birinchi baytda murakkab tushuncha va nomlar yo'q. Shuning uchun ham nemis tiliga yaxshi ko'chirilgan.

Ikkinchi baytda “Сабо́ль” va “Ку́ндуз” ma'nolarini anglatuvchi “Kesh” va “Kunduz” nomlari uchraydi. Bu yerda Сабо́ль va Ку́ндуз mo'ynasidan kiyim, kiyinib olgan kishilar haqida gap bormoqda.

Hermann Vamberi bu zolimlar (ahyvonlar)ning nomlarini noto'g'ri tushunib, ularni geografik joy nomlari deb qabul qilgan, chunki Kesh o'sha vaqtda katta shahar hozirgi Shaxrisabzning nomi bo'lgan Kunduz deb yana boshqa bir shahar atalgan. Hermann Vamberi zolimlarmning mazmunini tushunmasdan aynan “kelib” so'zining o'rniga “kiyib” so'zining yozilganini kuchiruvchlarni xatosi deb o'ylagan bo'lsa kerak.

Haqiqatda esa bu yerda hech qanday xato yo'q. Hermann Vamberining o'zi xatoga yo'l qo'ygan. Ba'zida poetik o'xshatishlarni Hermann Vamberi realiy tushungan, shuning uchun ham u bularni transkripsiya yo'li bilan ifodalagan.

Masalan:

Ey risolat chamanining samani,
Boy nabuvat sumanining chamani.

Inna amlax chamanning guli sen,
Inna afsax gulining bulbuli sen. (28 bet)
Hermann Vamberi tarjimasida:
Ey, sen bashorat maydonidagi gulsan,
Ey, sen bashorat gulining maydonisan.

Sen “Anna Almax” yaylovidagi gulsan,
Sen “Anna afsax” gulining bulbulisan.

Oh Du Lilie auf der Profetentur,
Und, oh Du Flur der Lilie des Profetenthums.

Du bist die Blume auf der Weise des “Ana Amlah”
Du bist der Sposser der rose “Ana Afsah” (Seite 15)

Birinchi bayt asosan to’g’ri berilgan, ikkinchi baytdagi yoqimli, g’ozal, shirin kabi ma’nolarni anglatuvchi “amlax”, “afsax” epitetlarini Hermann Vamberi noto’g’ri tushunib, ularni toponim deb qabul qilgan.

Masalan:

Dedi Mirzo: “Budir Shoxizamon,
Barchangizdan ulug’ uldur sulton.
Mening o’rnimda ani shox qilding
Barchangiz aning eshigiga keeling...”(302-bet)
Hermann Vamberi tarjimasida:
Shunda Mirzo dedi: “Bu yerda Shoxizamon,
Hammangizdan u kattadir.
Meni o’rnimda uni shox q iling,
Va hammangiz unga sadoqatli bo’ling...”

Da sprach der Mirza:
“Hier Schach – Zeman,
Soll der Oberste unter Euch Allen warden.
Nach dem Fürsten ihn an meiner Stelle,
Und sind ihm alle Unterhänigen”. (Seite 409)

Shu misoldagi “Shoxizamon” atqli ot, ya’ni kishi ismi emas, balki unvondir. Ayni shu parchada esa norasmiy unvon.

O’sha davr talabiga ko’ra “Shoxizamon” bu podshoh, shahzoda, hokim va podshoh oilasining vakillariga nisbatan qo’llaniladigan balandparvoz mubolag’ali epitet.

Umuman olganda, Hermann Vamberi “Shayboniynoma”ni yaxshi tarjima qilgan. Tarjimon hamisha har bir so’z va har bir iboraning mazmunini sinchiklab o’rganib, uni berishga harakat qilgan. Albatta bu borada esa, uning qadimgi o’zbek tili, uning dialektlari va boshqa sharq tillarini yaxshi bilganligi qo’l kelgan.

Quyidagi misol fikrimizni to’la tasdiqlaydi:
Surxak otlik uzumi tilkash edi,

La'li yakdonasi usru xush edi.

Sohibi jilvada bo'ston ichida,
Qon yutib Sohibi qo'rg'on ichida.

Yana bir uzumi bedona erdi,
Suvi bisyor hakimona erdi.

Hermann Vamberi tarjimasida:
“Surxak - uzumi” ham ajoyib edi,
Donasi yoqut rang juda mazali edi.

Sohibi bog'da kulib turgani,
Egasi kurganda yig'lab turardi.

Yana bir xil bedona uzumi bor,
Juda ham ajoyib sharbati bor.

Den Vorzüglichsten waren auch die “Surhek - Trauben”
Überaus aus schmeckten ihre rübenartigen Beeren
Und während die “Sohibe” im Obstgarten lächelte.

Weinte ihr Besitzer Trähnen in der Festung
Noch eine Traubengattung, die Bidone (Kornerlose)
Gab es den gar wunderbarem Safte

Xulosa

“Shayboniynoma” tarjimasining shunchalik muvaffaqiyatli chiqqanligiga sabab, avvalo, Markaziy Osiyo xalqlarining urf-odatları, tillarini yaxshi bilganligi bo’lsa, ikkinchidan esa “Shayboniynoma”ga qadar turkiy xalqlarining mushtarak yodgorliklari “Qutadg’u bilig”ni tarjima qilganligidir, albatta.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarini nemis tiliga o’g’irishda Hermann Vamberi quyidagi so’zlarni noto’g’ri o’g’irgan. Masalan: “Munglug” so’zi tarjimada “charchasa” deb berilishi, hamda “uning sherigi yo’q” so’zini ham tarjima qilinmay tashlab ketilganligidir.

Ayrim hollarda tarjimonlar asl nusxadagi so’zlarning ma’nosiga yetarli e’tibor berishmaganliklari natijasida o’zbeklar va Sharq xalqlari hayotiga xos so’zlar noto’g’ri ifodalangan.

Masalan: “Boburnoma” asarini nemis tiliga tarjima qilishda “chorik” va “chopon” kabi realliklarni “yog’och kovush”, “uzun xalat” deb noto’g’ri tarjima qilgan. Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarida “Сабо́ль” va “Ку́ндуз” ma’nolarini anglatuvchi “Kesh” va “Kunduz” nomlari uchraydi. Bu yerda sabol va kunduz mo’ynasidan kiyib olgan kishilar haqida gap ketgan. Hermann Vamberi bu zoonimlarni noto’g’ri tushunib, ularni geografik joy nomlari deb qabul qilishgan. Bu asar tarjimalari tarjima tarixini yaratish, bu tarjimalarning paydo bo’lish saviyasini aniqlash, ularni o’zaro qiyosiy tahlil qilish orqali ilmiy qiymatini belgilash, asarning o’zini o’rganish nuqtai-nazaridan ham o’zbek xalqining boshqa xalqlar bilan birga adabiy-madaniy aloqalari tarixini tadbiq etish jihatidan ham juda muhim.

Xullas, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asari Hermann Vamberi tomonidan o’zbek tiliga, ayrim kamchiliklariga qaramasdan mukammal tarjima qilingan asar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent, „O'zbekiston“ 2011.
2. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, „Ma'naviyat“, 2009.
3. I. A. Karimov. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. Toshkent. 2009.
4. A. Kayzer. Denkwürdigkeiten des Zehir-Eddin Muhammad Baber, Keisers von Hindistan, Deutsch verfaßt von ihm selbst. Leipzig – 1828.
5. Z. M. Bobur. „Boburnoma“. Toshkent – 1960.
6. S. V. Klaprot. Archiv für asiatische Literatur, Geschichte und Sprachkunde.
7. J. Sharipov. O'zbekistonda tarjima tarixidan. „Fan“ nashriyoti. Toshkent. 1965.
8. M. Xolbekov. „Badiiy tarjima bugunning talabi“. Toshkent. 2003
9. N. Komilov va boshqalar. Badiiy tarjima va ilmiy tavsif. Tarjima san'ati. Toshkent.1978.
10. N. Komilov. Bu qadimiy san'at,, Toshkent, 1986.
11. G'aybullo Salomov. „Tarjima mahorati“. „Fan“ nashriyoti. Toshkent – 1979 yil
12. G'aybullo Salomov. „Tarjima nazariyasi asoslari“. „O'qituvchi“ nashriyoti. Toshkent – 1978 yil
13. G'aybullo Salomov. „Adabiy tanqid va badiiy tarjima“. „Fan“ nashriyoti. Toshkent – 1983 yil
14. G'aybullo Salomov. „Tarjimada tahlil va tahrir“. Sharq yulduzi jurnali. 1973 yil 8-son

15. G'aybullo Salomov. "Til va tarjima". "Fan" nashriyoti. Toshkent – 1966 yil

16. Abduhuzur Abduazizov. "Sharq og'zaki ijodi g'arb nazarida". O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. Toshkent – 1995 yil

17. Muhammadjon Xolbekov. "Badiiy tarjima – bugunning talabi". O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. Toshkent – 1993 yil

18. Natan Mallayev. "O'zbek adabiyoti tarixi". "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent – 1970 yil

19. Muhammad Solih. "Shayboniynoma". Toshkent – 1961 yil

20. G'.Xo'jayev. "Tarjimada avtor uslubini aks ettirish masalasiga oid". Tarjima nazariyasi masalalari. Ilmiy to'plami № 606. Toshkent – 1979 yil

21. G'.Xo'jayev. "Milliylik va tarjima masalalari". Tarjima nazariyasi masalalari. Ilmiy ishlar to'plami. № 606 Toshkent 1979 yil

22. G'.Xo'jayev. "Olmon o'lkasida" tarjima nazariyasi san'ati. Toshkent – 1980 yil

23. G'.Xo'jayev. "Badiiy tarjima va milliy kalorit" maqolalar to'plami. Tarjima nazariyasi masalalari. Toshkent – 1995 yil